



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI VENGRIYA VA SLOVENIYAGA TASHRIF BUYURADI

19-22-may kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriya va Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashriflari bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston yetakchisi Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan 19-may kuni Budapeshtga keladi.

Oliy darajadagi muzokaralar, Vengriya rasmiylari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tadi.

Kun tartibidan ikki mamlakat o‘rtasidagi amaliy hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlari yanada kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Mamlakatimiz rahbari 21-may kuni Vengriya poytaxtida Turkiya davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni Lyublyana shahrida Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan uchrashadi, ushbu mamlakat parlamenti va hukumati rahbariyati bilan muzokaralar o‘tkazadi, qo‘shma ishbilamonlik tadbirlarida ishtirok etadi.

O‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, farmatsevtika, sanoat, oziq-ovqat va to‘qimachilik tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik qilish va gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON VA VENGRIYA: STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI DAVRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-21-may kunlari rasmiy tashrif bilan Vengriyada bo‘ladi. Davlatimiz rahbari tashrif davomida Turkiya davlatlar tashkilotining Budapesht shahrida bo‘lib o‘tadigan norasmiy sammitida ishtirok etadi.



O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasida diplomatik munosabatlar mamlakatimiz istiqbolga erishganidan ko‘p o‘tmay, ya‘ni 1992-yil mart oyida o‘rnatilgan. O‘shandan beri ikki tomonlama munosabatlar rasmiy

o‘zaro hamkorlikdan konstruktiv va o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotni yo‘lga qo‘yishgacha bo‘lgan muhim evolyutsiyani boshidan kechirdi.

Davomi 2-betda



Yangi O‘zbekiston hayotida yana bir tarixiy voqea sodir bo‘ldi. G‘alaba bog‘ida “Millat fidoyilari” monumenti barpo etildi. Ushbu monumentda 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomi zarhal harflar bilan muhrlandi.

Inson qadr topsa, ko‘nglida rozilik tuyg‘usi jo‘sh uradi. Ana shu mamnunlik, ko‘ngildagi yorug‘ tuyg‘ular insonni olg‘a boshlaydigan qudratdir. Shu ma‘noda, yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanishi bejiz emas. Axir biz aniq reja asosida yorug‘ kelajak — Uchinchi

Renessans sari dadil odimlayapmiz. Buni bugun ortga qaytmaz tus olgan siyosiy iroda, mamlakatimizdagi tub islohotlar ham isbotlab turibdi.

Ammo bu yo‘l oson bo‘lmasiligini ham, maqsadga erishish mashqaqatli mehnat talab etishini ham yaxshi

anglaymiz. Zero, yuksak taraqqiyotga erishish hech qachon oson bo‘lmagan. Bugungi tahlikali davrda bu ikki hissa hushyorlikni, oqillik bilan ish tutishni talab etadi.

Davomi 2-betda

UMUMBASHARIY MADANIYAT HODISASINING ZAMONAVIY MOHIYATI — O‘ZBEKISTONDAGI TURIZM FALSAFASI

Turizm kishining o‘z dunyosi devorlaridan tashqariga chiqish, noma‘lum narsalar tomon harakatlanish zarurati bo‘lib, u ziyorat qilish amaliyotidan o‘sib boradi, ildizi esa sayohatga ehtiyojning qadim shakllariga borib taqaladi.

Insoniyat tarixidagi karvon yo‘llari rivoji, dengizga chiqish va yangi qo‘riqlar kashf etilishi odamlarning dunyoni bilish, o‘zicha haqiqatni izlash uchun uzoq safarlarni amalga oshirishiga zamin yaratdi.

Chuqurroq fikr yuritdik, sayohat va falsafaning umumiy jihatlari yetarlicha topiladi — hayrat, yangi, hali borilmagan, ko‘rilmagan dunyoning, umuman, uning qonunlari va mohiyatini tezroq tushunish istagi, jozibas. O‘sha hayrat g‘ayrat uyg‘otdi insonlarda. Ularni falsafa qilishga undadi. Sayohat orqali inson odatiy yashash tarzidan ancha farq qiladigan “boshqa birov”ning imkoniyatlarini chamaladi, his etdi, bu tuyum uning mazmunini, insoniylik mohiyatini ro‘yobga chiqarish shartlarini o‘zgartirib yubordi. Sayohat har doim odatiy mavjudlik chegarasidan tashqariga, yangi olamga chiqish yo‘li edi, natijada u insonning o‘z “tayanch nuqtasi” va boshqa odamlarning qadriyatlarini haqidagi g‘oyalarni



birlashtirdi, rang olib kirdi. Turli hayotiy vaziyatlar tengligini tan olish, shaxsiy erkinlik va umumiy mas‘uliyat qadriyatlarining uyg‘unligi tamoyillariga asoslanib, sayr etish umumbashariy madaniyat asoslarini tashkil qildi — insoniy munosabatlarning eng toza demokratik shakli sifatida u ushbu jarayonga o‘z hissasini qo‘shdi.

Demak, turizmni umuminsoniy madaniyat hodisasi, insonning o‘zini o‘zi anglash vositalaridan biri, desak adashmagan bo‘lamiz. Bizningcha, uning o‘ziga xosligi

muayyan vaqt bilan cheklangan jarayon ekanida, ya‘ni u odamlarning yashash tarzini doimiy ravishda o‘zgartirish imkoniyati bilan bog‘liq emas. Sayohatga ehtiyoj shaxs shakllanishining o‘tish bosqichlarida, u birmuncha vaqt bir xil kunlaridan tashqariga chiqishda, g‘ayrioddiy vaziyatga tushib qolishga aqlan intilganda paydo bo‘ladi. Keyin olingan tajriba bilan o‘sha shaxs o‘z rivojlanishining yangi bosqichida endi hayotini boyitadigan muhitga qaytadi.

Davomi 3-betda



MILLAT FIDOYILARI

Mustaqillik yillarida halok bo‘lgan vatan o‘g‘lonlari xotirasiga

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Mustaqillik yillarida
qurbon bo‘lgan o‘g‘lonlar,
“Qurbon bo‘lgan” degim kelmas,
qo‘rg‘on bo‘lgan o‘g‘lonlar.
El tinchi-yu omonligi,
erk-saodat yo‘lida,
Vatan uchun, millat uchun
qalqon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Gar Vatanga aylanmasa,
unday ko‘ngil ko‘ngilmas,
“Halok bo‘lgan” degan so‘zga
ko‘ngillar hech ko‘nikmas.
“Halok bo‘lgan” degim kelmas,
bu o‘g‘lonlar o‘lganmas,
Shudring bo‘lgan, shamol bo‘lgan,
osmon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Har bolasi hushyor yurtida
qoraymas hech quyoshlar,
Yuzlariga shom pardasin
tortmayin tog‘u toshlar.
Ota uyda laganlarda
qoldi suzilgan oshlar,
Nasibasi tiriklarga
armon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Jaholat-u qabohatga
tik bordingiz berib jon,
Nomingizni yod aylar har ko‘cha,
har bir xiyobon.
Saharlari samolardan
mo‘ltiraysiz nigoron,
Osmonlarda zor-intizor
Cho‘lpon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Birovlari chimildiqqa
kirib ham ulgurmagan,
Birovlari yor ko‘ziga
to‘yib ham termulmagan.
Birovlari farzand ko‘rib,
o‘g‘il to‘ylar qilmagan,
O‘z yurtiga qosh-u ko‘z-u
mijgon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Birovingiz — Jaloliddin,
Bobursiz birovingiz,
Tiriklikdan so‘rolmasdan
hali dil so‘rovingiz.

Burch-sadoqat sarhadida
joningiz — garovingiz,
Burch yo‘lida jism-u joni
o‘lpon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Siz barhayot o‘g‘lonlarsiz,
siz hech qachon o‘lmagan,
O‘n sakkizga, yigirmaga,
o‘ttizga ham to‘lmagan,
Bu hayotda o‘n gulidan
bir guli ham so‘lmagan,
Nom-u yodi mangu bog‘-u
bo‘ston bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Ul “Ikkinchi jahon...” degan
urushda nolam ketgan,
Mening besh yuz ming lolamu
besh yuz ming bolam ketgan.
Har bir ketgan bolam bilan
bir buyuk olam ketgan,
Qo‘rg‘oshinzor ko‘ksi ro‘yi
jahon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Jonim bolam, bu mening ham
farzimdir, ham qarzimdir,
Ayni paytda farzandlarga
maktubim dil arzimdird.
Vatan — mangu maktabimdir,
mening mangu darsimdir,
Umri ibrat maktabida
irfon bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Sharaf bo‘lsin shunday umr,
shunday fido har jonga,
Vatan nomi burkangaydir
abadiy sharaf-shonga.
She‘rlar aytam nomingizdan
Oliy Bosh qo‘mondonga,
Matonati ming bir she‘r-u
doston bo‘lgan o‘g‘lonlar.

Xotiraning rangi moviy —
zangor osmon ranglidir,
Vatan uchun jon berganlar
qadri doim shonlidir.
Ona Vatan bayrog‘ida
oy, yulduzlar mangudir,
Mana shunday porloq davr-u
davron bo‘lgan o‘g‘lonlar.

MILLIY KONTENT — MILLIY MEDIA DASTURXONI

Prezidentimiz raisligida 15-may kuni maktab ta‘limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bugunning juda muhim, og‘riqli muammolaridan biriga yechim berildi. Bu — bolalarimizning ma‘naviyatini avaylab-asrash, zararli g‘oyalarga qarshi g‘oya bilan qarshi tura oladigan, bolalar tilida yozadigan, gapiradigan kontent yaratish. Davlatimiz rahbari muammoning tub ildizini ko‘rsatdi.

Maktablarda ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazyapmiz. Lekin ular o‘qiydigan, ko‘radigan, eshitadigan milliy kontent bo‘lmagan uchun muayyan darajada ma‘naviy bo‘shliq yuzaga kelayotgan edi. Bolalarning bo‘sh vaqtida zavq bilan o‘qiydigan, ko‘radigan, eshitadigan, eng muhimi, bolalar uchun maxsus milliy kontent yaratish muammosi yechildi. Prezident qarori bilan Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti markazga ilmiy-metodik, texnologik jihatdan ko‘makchi bo‘ldi.

Davomi 5-betda



2025-yil 17-may, 100-son

www.yuz.uz

f yuz.uznews

📧 yuz_official

📷 yuz.uz_news

📺 yuz.uz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

O‘ZBEKISTON VA VENGRIYA: STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI DAVRI

Boshlanishi 1-betda

2021-yil mart oyida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbaning Toshkentga tashrifi yakunlari bo'yicha Strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi va u zamonaviy jadal hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ushbu hujjatda tomonlarning munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish niyatlarini qayd etilgan.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot yuqori sur'atda davom etmoqda. Bosh vazir Viktor Orbaning O'zbekistonga tashrifidan tashqari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil oktabr oyida Vengriyaga rasmiy tashrifi ham alohida e'tiborga molikdir. Oliy darajadagi muzokaralar yakunida sanoat kooperatsiyasi va ilmiy-texnikaviy hamkorlikdan tortib, akademik almashinuviylargacha bo'lgan turli yo'nalishlarni qamrab olgan 16 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. Tashrif doirasida ikki mamlakat ishblarmon doiralariining yetakchi vakillari ishtirok etgan O'zbekiston — Vengriya biznes-forumi ham bo'lib o'tdi.

Hozir ikki tomonlama darajada ham, ko'p tomonlama formatlarda ham faol hamkorlik olib borilmoqda. Davlatlararo hamkorlik keng qamrovli huquqiy bazaga, jumladan, 50 dan ortiq ikki tomonlama hujjatlarga asoslanadi. Ulardan eng muhimi investitsiyalarni o'zaro himoya qilish, ilm-fan, innovatsiyalar, qishloq, suv xo'jaligi sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va yuqori texnologiyalar sohaslarida idoralararo memorandumlar. Huquqiy ro'yxatga olishning bunday ko'lami munosabatlarning institutsional asoslarini maqsadli mustahkamlashdan dalolat beradi.

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik ikki davlatning strategik sherikligini mustahkamlash, siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik va gumanitar almashinuviylarning institutsional asoslarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu mexanizm nafaqat strategik sheriklik asoslarini mustahkamlaydi, balki tajriba almashish, qonunchilik tashabbuslarini muvofiqlashtirish va xalqaro muammolarga umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ko'priklarni ham ko'rib olinadi.

2020-yilda O'zbekiston Oliy Majlisi va Vengriya Milliy Assambleyasida parlamentlararo hamkorlik guruhlarini tashkil etildi. O'zaro

hamkorlikning bunday formati siyosiy ishonch va sheriklik barqarorligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, parlament diplomatiyasidan insonparvarlik tashabbuslarini ilgari surish, akademik va yoshlar almashinuviini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish vositasi sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasida ham samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Vengriya tashqi ishlar va savdo vaziri Peter Siyartoning O'zbekistonga tashrifi chog'ida 2024-2026-yillarga mo'ljallangan vazirliklararo hamkorlik dasturi imzolanganini buning yorqin ifodasidir.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston — Vengriya munosabatlari rivojlantrishning asosiy omili bo'lib qolayotir. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi o'sishi uchun salmoqli salohiyatga ega va tomonlar o'zaro savdo aloqalarini ishonch bilan oshiryapti. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatlarimiz o'rtasida 2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 78 million AQSH dollaridan oshgan bo'lsa, joriy yilning yanvar-mart oyilarida bu ko'rsatkich 25,1 million dollarni tashkil etib, barqaror o'sishni ko'rsatdi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish jarayonida Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Vengriya hukumatlararo komissiya faoliyatini alohida ta'kidlash joiz. Komissiyaning to'qqizinchi yig'ilishi 2024-yilning may oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan edi. Yig'ilish yakunlari bo'yicha qator ikki tomonlama hujjatlar, jumladan, ikki mamlakat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi. Ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish, jumladan, “Angren” EIZda Vengriya kompaniyalari uchun Maxsus sanoat zonasini tashkil etish masalalari muhokama qilindi. 2024-yil oktabr oyida mazkur loyihani amalga oshirish bo'yicha investitsiya shartnomasi imzolandi.

Iqtisodiy muloqotda 2021-yilda tuzilgan O'zbekiston — Vengriya ishblarmonlar kengashi va 2022-yilda tashkil etilgan O'zbekiston — Vengriya taraqqiyot jamg'armasi faoliyati alohida o'rinni tutadi. Uning asosiy maqsadi qo'shma investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishdan iborat. 2023-2024-yillar oxiriga qadar jamg'arma 100 million yevrodan ortiq tashabbuslarni qo'llab-quvvatladi. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini



modernizatsiya qilish va resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga maqlab kiritdi.

Bugungi kunda Vengriya O'zbekistondagi eng faol yevropalik investorlar qatoridan joy olgan. Iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari farmatsevtika, agrosanoat kompleksi, oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, suv texnologiyalari bo'lib qolmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda Vengriya sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 17 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 10 tasi qo'shma va 4 tasi 100 foiz Vengriya kapitali ishtirokidagi korxonalaridir.

O'zbekistonda davlat banklarini isloh qilish va xususiyashtirish sharoitida bank sektoridagi o'zaro hamkorlik muhim yo'nalishga aylanib bormoqda. 2022-yil dekabr oyida “OTR Bank” va O'zbekiston Moliya vazirligi o'rtasida “Ipotekabank”ning 100 foiz aksiyalarini Vengriya banki tomonidan bosqichma-bosqich sotib olish to'g'risida bitim imzolangan edi.

So'nggi yillarda biznes-forumlari, biznes-missiyalar va B2B uchrashuvlarini tashkil etish muntazamlik kasb etmoqda. Jumladan, Vengriyaning iqtisodiy soha vazirliklari rahbarlari boshchiligidagi delegatsiyalar har yili o'tkaziladigan Toshkent xalqaro investitsiya forumining doimiy ishtirokchisi hisoblanadi. Shuningdek, so'nggi ikki yilda bir qancha

yririk biznes tadbirlari, jumladan, Toshkentda biznes-forum va Budapeshtda O'zbekiston kompaniyalarining rod-shousi o'tkazildi. Ushbu platformalar ishblarmon doiralari vakillari o'rtasida barqaror aloqalarni shakllantirish, ta'minot zanjiri va iqtisodiyotning real sektorida hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qilyapti.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantrishda muhim yo'nalish sanaladi. O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning yorqin timsollaridan biri venger sharqshunosi, turkologi va sayyohi Armini Vamberi hisoblanadi. Uning zamonaviy Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ham davom etayotgan madaniyatlararo muloqotga mustahkam zamin yaratdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Debretsen universitetining ta'lim dasturlari, shuningdek, akademik almashinuv, stajirovka va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha loyihalar amalga oshirilyapti. O'zbekistonlik talabalar Vengriya oliy ta'lim muassasalarini, jumladan, Semmelweis universitetida tibbiyot, muhandislik va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Har yili Vengriya hukumati “Stipendium Xungarikum” dasturi orqali ushbu mamlakat universitetlarida o'qishni davom ettirish istagida bo'lgan

o'zbekistonlik talabalar uchun 170 ta stipendiya ajratadi.

Madaniy tashabbuslar doirasida madaniyat kunlari, konsertlar, fotokongresslar va milliy an'analari taqdimotlari tashkil etilmoqda. Vengriya poytaxtida faoliyat yuritayotgan O'zbek tili va madaniyati markazi ikki xalq o'rtasidagi muloqot maydoniga aylangan.

2020-yilda Budapeshtda Armini Vamberining hayoti va sayohatlariga bag'ishlangan “Markaziy Osiyoda venger darveshi” ko'rgazmasi tashkil etildi. Unda olimning O'zbekiston bo'yab sayohatlarini chog'ida to'plangan qo'lyozmalar, tarixiy eksponatlar, shaxsiy muzeyidan olingan buyumlar namoyish etildi. Ko'rgazmani 5 mingdan ortiq kishi tomosha qildi va bu Vengriyada mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga qiziqish yuqori ekanini tasdiqlaydi.

2024-yil oktabr oyida Vengriyaning Likatelek shahrida buyuk o'zbek shoir va mutafakkiri, atqoli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy byusti o'rnatildi. Ushbu yodgorlik tanqili venger haykaltaroshi Georgi Lantos tomonidan yaratilgan.

2025-yil yanvar oyida Budapeshtda birinchi O'zbek kinosi kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi. Qayd etish joizki, mazkur madaniy anjuman O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi madaniy

aloqalarni mustahkamlashda muhim voqeaga aylandi. Xususan, Vengriya jamoatchiligi zamonaviy o'zbek filmlarini katta qiziqish bilan kutib oldi.

Bundan tashqari, kutubxonalar, muzeylar, ijodiy uyushmalar o'rtasidagi aloqalar ham faol rivojlanmoqda. Vengriya ham turkiy xalqlarning madaniy merosini o'rganish va ommlashtirishdan manfaatdor, bu qo'shma ilmiy va arxeologik ekspeditsiyalarni rivojlantrishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston — Vengriya munosabatlari muvozanatli va ko'p qirrali hamkorlik namunalari ko'rsatib, yuksalishda davom etmoqda. Ushbu jihatlar jug'rofiy va tarixiy tafovutlar strategik fikrlash, o'zaro tushunish va kelajakka e'tiborga asoslangan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yishga to'stinlik qilmasligini tasdiqlaydi. Hozirgi dinamikani inobatga olgan holda, ishonch bilan aytilish mumkinki, O'zbekiston va Vengriya hamkorlikning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda.

Vengriya 2018-yildan buyon kuzatuvchi maqomida bo'lgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi o'zaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Bu ishtirok Budapeshtga turkiy davlatlar bilan yaqin aloqalar o'rnatish va mintaqalararo integratsiyaga hissa qo'shish imkonini beriyapti. Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi sheriklik O'zbekiston va Vengriya transport, energetika, raqamlashtirish, ta'lim va ekologiya sohaslarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Global o'zgarishlar va mintaqaviy tuzilmalarning roli ortib borayotgan bugungi sharoitda O'zbekiston Vengriyaga Yevropa Ittifoqi bilan aloqalarni chuqurlashtirishga ko'maklashish va ayni paytda turkiy dunyo tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qodir sherik sifatida qaraydi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidentining Vengriyaga bo'lajak rasmiy tashrifi erishilgan kelishuvlarni yanada mustahkamlash va hamkorlikning yangi uflarini ochishga xizmat qiladi. Tashrifning Turkiy davlatlar tashkiloti norasmiy sammiti doirasida o'tishi ham muloqotning ishonchli xususiyati va mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy hamohanglik darajasi yuqori ekanini tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA

INSON QADRI ULUG‘ YURTDA QAHRAMONLAR MANGU YASHAYDI

Munosabat

Boshlanishi 1-betda

Illo, hozir xalqimiz aytganiday, yetti emas, yetmish marta o'Ichab kesish zarurati paydo bo'ldi. Bunday paytda yoshlarni har jihatdan yetuk, vatanparvar qilib tarbiyalash yagona to'g'ri yo'ldir. Shu bois, o'tganlar xotirasini abadiylashtirish, shu orqali yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilayotgan ishlarni faxr bilan e'tirof etish zarur.

Davlatimiz rahbari 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida jamoatchilik vakillari ishtirokidagi uchrashuvda, jumladan, bunday dedi: **“Hech shubhasiz, mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlarini daxlsiz saqlash, bugungi tinch va osoyishta hayotni himoya qilish yo'lida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari ham bizning qahramonlarimiz. Ular biz uchun hamisha barhayotdir. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz mustaqil O'zbekistonning ham ana shunday qahramonlari borligini bilishi va ularni hech qachon unutmashligi zarur”.**

Quyida vatanimizning ana shunday jasoratli o'g'lonlari oila a'zolarining dil so'zlari bilan tanishasiz.



OTAM KABI VATAN HIMOYACHILARI XOTIRASI ABADIYLASHTIRILGANIDAN MINNATDORMIZ

Har doim ishxonamga kiraverishdagi foyeda Prezidentimizning

“Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida yurtimiz ozodligi, xalqimizning bugungi tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida hamkor bo'lgan mard va jasur o'g'lonlarimizning aziz xotirasiga ehtirom ko'rsatish biz uchun ham farz, ham qarzdır”, deya zarhal harflarda yozilgan fikrlari e'tiborimni tortadi. Bu gaplar qaddimni tik tutishga chog'laydi. Har safar otamni, uning tengsiz jasoratini eslayman. Ko'ksimda g'urur paydo bo'ladi.

Matbuotda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida jamoatchilik vakillari ishtirokidagi uchrashuvda aytgan fikrlarini o'qib, ushbu faxr, iftixor tuyg'usi sira so'nmas mehr bilan sug'orildi. Prezidentimizning **“G'alaba bog'i — bu hamisha barhayot qahramonlarimiz timsoli, o'zligimiz ifodasi, qanday sabot-matonatli xalq ekanimizning yorqin amaliy tasdiq'idir”,** degan gaplari ayni haqiqat.

Otam Salohiddin Bekmurodov ichki ishlar idoralarida xizmat qilib, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashib, beqiyos matonat va jasorat namunasini namoyon etgan, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan xodimlardan biri edi. 2000-yil avgust-sentyabr oylarida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va

Uzun tumanlaridagi tog'li hududlarga suqilib kirgan terrorchilarga qarshi kurashda mardlarcha halok bo'lgan.

Bugun vatanimizning otam kabi chinakam o'g'lonlari xotirasini abadiylashtirish va yoshlarga tanitish borasida qilinayotgan ishlardan nihoyatda quvondik. Bu nafaqat bizning oilamiz, balki butun O'zbekiston yoshlarining qalbidagi faxr uyg'otdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz rahbarining shaxsan o'zi yurtimizning bahodir o'g'lonlariga hurmat-ehtiromini ta'sirchan shaklda namoyon qilish, ularning vatanimizga mehri, sadoqati va jasoratini ana shu yodgorlikda aks ettirish haqida arxitektor va haykaltaroshlar, tarixchi olimlar, ijodkor ziyolilar bilan muloqot qilgani xalqimiz qalbidagi ertangi kunga ishonchni yanada mustahkamladi. Hech bir insonning

mehnati, jasorati va fidoyiligi unutilmasligi yana bir bor tasdiq'ini topdi. Natijada G'alaba bog'ida yangi bir yodgorlik — **“Millat fidoyilari”** monumenti barpo etildi. Ushbu monumentga 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari nomi zarhal harflar bilan bitildi.

Endi otam haqida aytam. U kishi 1998-yili Surxondaryo viloyati IIBga qarashli jangovar vaziyatni qo'llash maxsus otryadida xizmat qilishdan ish boshlagan. Janggohga ketishidan oldin kichik serjant sifatida Denov tumani ichki ishlar bo'limining hisobga olish, qayd etish va statistika ishlari guruhi kichik inspektori vazifasida faoliyat yuritgan.

Vagt o'tadi, davrlar o'zgaradi. Lekin davlatimiz, xalqimiz qahramonlarining shonli nomini hech qachon unutmam ekan. Salohiddin Bekmurodov nomi ham hamisha barhayot, biz — farzandlari, mahalladoshlari, yoru do'stlarining xotirasida yashayotir.

Otam tug'ilib o'sgan qishloq hozir uning nomi bilan ataladi. Bu qishloq tog' yonbag'ridagi so'lim maskanda joylashgan, quyuq mevali va manzarali daraxtlar kishiga zavq bag'ishlaydi. Qishloqdagi kattayu kichik Bekmurodovlar oilasini birdek hurmat qiladi. Biz ikki jig, bir o'g'il yetim qoldik. Davlat bizni qaramog'iga oldi. Sira nazardan chetda qoldimmi: o'qitdi, g'amxo'rlik qildi. Uch farzand

ham otamiz izidan borib, vatan himoyachisi — ichki ishlar xodimi bo'ldik.

Salohiddin Bekmurodov Prezidentimizning farmoniga binoan vafotidan so'ng “Jasorat” medali bilan mukofotlangan.

IIB xodimi sifatida yaxshi bilamiz: otamiz bilan birga turli yillarda xalqimiz va vatanimiz oldida matonat ko'rsatgan, yurtimiz tinchligiga rxna solgan terrorchilarga qarshi kurashda halok bo'lgan xodimlar — marhum katta leytenantlar Sherali Aytuganov, Shavkat Doniyorov, Muhiddin Amonov, kichik leytenant Aliqul Safarov, safdari Xidirali Ro'ziyoyev, Abzori Tursinov, Safarali Choriyev kabi mard o'g'lonlarning xonadoniga borib, oila a'zolari, farzandlari holidan xabar olinadi. Ularga boshqaramiz tomonidan ro'zg'or uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlari va sovg'alar beriladi. Bu ham hech kim, hech narsa unutilmasligidan darak.

2023-yil mart oyida Prezidentimiz Surxondaryoda biz bilan uchrashgan, fikr va takliflarimizni eshitgan edi. Davlatimiz rahbari G'alaba bog'ida jamoatchilik vakillari bilan muloqotda ushbu uchrashuv haqida eslab, **“Mana shu qahramonlarimiz xotirasiga ham yodgorlik o'rnatmak, degan orzu, kerak bo'lsa, armon meni doim o'ylantirib kelardi. Bu nafaqat mening, balki ana shunday botir va dovyurak ona yurt posbonlarini tarbiyalagan sizdek otanalarning, qolaversa, qahramonlarimizning ayollari va farzandlarining, butun xalqimizning orzusi edi, desak, albatta xato bo'lmaydi”,** dedi. Shuning o'ziyoq mamlakatimizda inson qadri qanchalik ulug'lanayotganidan dalolat.

Jaloliddin ELMURODOV,
Uzun tumani IIB inspektor-psixologi

ONAM SHU KUNLARNI ORZU QILIB O'TDI

Ko'pchilik uchun bu gaplarim shunchaki mubolag'adek tuyulishi mumkin. Aslida, bu hol hech kimning boshiga tushmasin. Ilohim, yurtimiz tinch, yomon ko'zlardan Yaratganning o'zi asrasin. Lekin ichimdagi toshib turgan tug'yonlarni yozmasdan turolmadim. Ishonasizmi, yaqindagina davlatimiz rahbarining 9-may – Xotira va qadrlash kuni bayrami munosabati bilan bildirgan fikrlarini eshitib, ko'zimdagi yoshni to'xtata olmadim.

Ayniqsa, “Millat fidoyilari” monumenti barpo etilganidan xabar topib, ko'nglim ancha taskin topdi. Unda mening sheryurak ukamning ham nomi qayd etilgan. Prezidentimiz “Bu maskanda nomlari qayd etilgan bahodirlarimiz jasorati, nomlari va xotirasi el-yurtimiz qalbidan hech qachon o'chmaydi”, deya ta'kidladi. Demak, ukam Otabeq Muhammadiyevning xotirasi mangu qoladi. Shu kunlarni otam va onam ko'rganida qani edi... Afsus, o'tib ketishdi.

O'zim ham harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqanman. O'sha kuni hech yodimdan chiqmaydi. Ukam harbiyda ishlayotganiga 5-6 yil bo'lib qolgandi. Yaxshi niyat bilan to'y qilib, uylandirish harakatiga tushdik. U yozda ta'tilga chiqib keldi. Shu orada tezlashirib to'yni o'tkazdik. Hali ta'tiliga bir oz vaqt bor edi. Ish joyidan chaqiruv qog'ozi kelib qoldi. Yosh kuyovni o'zim kuzatib yubordim. Afsuski, oradan bir oy vaqt o'tmasdan noxush xabar keldi. Sariosiyo yurt chegarasi daxlsizligini ta'minlash chog'ida yovuz dushmanlar bilan olishuvda qahramonlarcha halok bo'libdi.

Otam bilan onamga og'ir bo'ldi. Lekin ularning bir yupanchi bor edi. “O'g'limiz yurt himoyasi, bizning tinchligimiz uchun jon berdi”, deya taskin topardi. Ona baribir ona ekan-da. Farzandining xotirasini abadiylashtirish uchun kirmagan idorasi qolmadi. “Hali kun kelib,

bolamning katta joylarda xotirasi abadiylashtiriladi. Qahramonim hech qachon unutilmaydi”, deb bot-bot takrorlardi. O'zi bosh bo'lib ukam o'qigan maktabda kichik muzey tashkil qilgandi. O'sha paytlar onam yo'qlab turgani uchungina maktabda xotira kechasi o'tkazib turishardi...

Prezidentimizning o'sha kungi har bir gap yuragimga o'rmasdi. Shundan so'ng bu yurtda hech kim, hech qachon unutilmasligiga ishonch hosil qildim. Onam aytgani bejiz emas ekan.

“Hozir bir ukam va o'g'lim harbiy xizmatchi. Shukrki, tinch va osuda yurtimiz daxlsizligini saqlashda o'z vazifasini bajarmoqda. Vatanga xizmat barchamiz uchun faxr. Davlatimiz rahbari aytganidek, ukam Otabeq kabi qahramonlar hech qachon unutilmaydi. Agar onam hayot bo'lganida, Prezidentimizga cheksiz minnatdorlik bildirgan, quvonchdan yuragi hapriqqan bo'lardi.

Ozod MUHAMMADIYEV
Kitob tumani



UMUMBASHARIY MADANIYAT HODISASINING ZAMONAVIY MOHIYATI — O‘ZBEKISTONDAGI TURIZM FALSAFASI



Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Qisqacha aytganda, turizmning madaniy, ijtimoiylashuv jarayonidagi rolini hech narsa bilan almashitirib bo‘lmaydi. Ma‘nan yuksalish va dunyo madaniyatini egallashga bo‘lgan yovvoyi istak turli joylarga tashrif buyurish, diqqatga sazovor joylarni ko‘rib, bularning hammasini idrok etish orqali qondiriladi, ko‘rilgan narsa tom ma‘noda shaxsning mulkiga aylanadi. Turizm sizning xalqingiz, millatingiz, insoniyatning madaniy tajribasiga shaxsiy tegishlilikni his qilish imkonini beradi. Shu bois, madaniy turizm resurslari o‘zgarmas, yaxshi niyat bilan aytdigan bo‘lsak, abadiydir.

“Yashil” turizm nima va uni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?

Turizm nafaqat mezbon davlatning rivojlanishiga yordam beradi, balki sayohatlar o‘zi sezgan holda milliy madaniyatlari va qadriyatlarini tizimining tashuvchisi va targ‘ibotchisiga aylanadi. Bundan tashqari, birotta sayyohning, deylik, O‘zbekistonga tashrif buyurishi davomida madaniy, turistik hududlarga qiziqishi jamiyatimizni ham o‘z tarixiy merosidan to‘liq xabardor bo‘lishga undaydi. Bugun O‘zbekiston tabiatdan unumli foydalanish orqali ekoturizmi rivojlantirish, ekologik muvozanatni saqlash, atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan choralarni ko‘rayotgan yetakchi davlatlar qatoridan joy olmoqda.

Ekoturizm shunday nozik sohaki, to‘g‘ri boshqarilmasa, sayyohlik hududlari me‘yordan ortiqcha gavjumlik muammosiga duch kelishi mumkin. Masalan, Avstriyadagi xushmanzara ko‘l bo‘yida joylashgan Xallshtadt qishlog‘ida 800 kishi istiqomat qilishiga qaramay, sayohat mavsumi avjida go‘zal manzaralarni ko‘rishga bu yerga har kuni o‘n ming sayyoh keladi. Mahalliy aholi bu tartibsiz oqimni to‘xtatish uchun tog‘lar va ko‘l manzarasi fonida qo‘lbol to‘siqlar ham qurishga majbur bo‘lgan.

Biroq jahon amaliyotida ekoturizmi barqaror rivojlantirish o‘z mevasini bergan holatlar juda ko‘p. Ekoturizmi barqarorlashtirish, muayyan qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, real voqelikdir. Bu sohadagi muvaffaqiyat iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatga bog‘liq. Ekoturizmi rivojlantirish ham tabiiy hududlar salohiyatini baholash, ham strategik rejalashtirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. O‘zbekistonda buni anglagan holda kompleks choralar ko‘rilyapti. Masalan, so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni mamlakat umumiy maydonining 5,2 foizidan 14 foizigacha kengaytirildi.

Ayni paytda hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e‘tibor berilishi turizmning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirmoqda. Jumladan, Samarqand ulkan sayyohlik salohiyatiga ega viloyat sifatida mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi. Viloyatning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida bu yil Samarqandga 2,55 million xorijlik sayyohni jalb etish va turizm xizmatlari eksportini 550 million dollardan oshirish rejalashtirilgan, shunga yarasha dastur va loyihalar tayyorlangan. Xususan, investitsiya dasturi doirasida qiymati 2 trillion 63 milliard so‘mlik 30 ta loyiha amalga oshiriladi. Loyihalarning 10 tasi (868 milliard so‘mlik) yangi mehmonxonalarni ochish bilan bog‘liq bo‘lsa, 15 tasi umumiy ovqatlanish va dam olish maskanlari, 3 tasi savdo va ko‘ngilochar maskanlar, 2 tasi sanatoriy va sog‘lomlashtirish markaziga oid.

Qadim Buxoro haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ekoturistik obyektlarni viloyatning deyarli

hamma tumanida uchratish mumkin. Romitan tumanida joylashgan tematik turistik majmua — “Bukhara Desert Oasis & Spa” innovatsion ekoturizm klasteri, shubhasiz, hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi. Yillar davomida sahro bag‘rida olib borilgan sa‘y-harakatlar natijasida yangi ekoturizm markazi tashkil etilib, uning loyihalari bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bo‘rontepa tarixiy tepaligi yaqinida yangi sayyohlik yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan mazkur markaz Prezidentimizning “2017-2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. “Bukhara Desert Oasis & Spa” markazida qadimiy Varaxsha massivi, Bo‘rontepa arxeologik yodgorligi, klaster hududi va Buxoro amiri Abdulahadxon chodiri bo‘ylab ekskursiya qilish, o‘tovda yashash, plyaj, massaj, yo‘l tanlamas avtotransport vositalarida, kvadratsiklda va tuyalarda qum barxanlari bo‘ylab sayohat, cho‘l hayvonot bog‘i, ekologik bog‘, innovatsion issiqxona, suvenirlar do‘koni va salqin ichimliklar bari kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan.

Ushbu eartaknamo maskanga tashrif buyuruvchilar uchun ochiq tabiat qo‘ynida ajoyib teatrlashtirilgan tomoshalar va ko‘ngilochar shou dasturlari namoyishi o‘tkaziladi, bu mehmonlarning xotirasida bir umrga muhrlanib qolishi aniq.

Kelgusi 20 yil ichida xalqaro turizm sayyoramiz bo‘yicha kamida uch baravar oshishi kutilmoqda, shunga mos ravishda ekologik yuk ham ortadi. Ekoturizm, bir tomondan, zararli oqibatlarini minimallashtirgan holda, umuman, turizmning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qodir bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hozirgi va kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlarini, birinchi navbatda, sog‘lom turmush tarzi muhitiga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘unlashtiradi. U umumiy iqtisodiy va bozor manfaatlarini, shahar va qishloq aholisi talablarini kesishtiradi, hozirgi zamon insonlarining o‘z hayotini qay tarzda o‘tkazish va kelajak avlod hayotiga mas‘uliyat bilan munosabatda bo‘lishning yangi paradigmasini shakllantiradi.

Yurtimizdagi ekologik turizm tabiat qo‘yniga mas‘uliyatli sayohat bo‘lib, atrof-muhitni asrash va mahalliy xalqning ijtimoiy himoyasini yaxshilashni ta‘minlashga qaratilgan. Ekoturizmning maqsadi etib esa undan tushgan sarmoyani tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashga yo‘naltirilgan moddiy va moliyaviy sarf-xarajatlardan iborat qilib belgilangan.



Biroq tan olish kerak, haligacha ko‘pchilik odamlar tabiat qo‘ynida o‘zini to‘g‘ri tutishni bilmaydi, lekin tabiiy joylarga sayohatdan bahramand bo‘lishni juda xohlaydi. Bunday holda yo‘riqnomalar, uslubiy qo‘llanmalar, barcha kerakli ma‘lumotlar bir joyda jamlangan qulay platformalar kerak bo‘ladi. Bular ham oflayn, ham onlayn manbalar bo‘lishi mumkin.

Sayyohlarga ekologik ta‘lim berishga misol qilib, Norges Nasjonalparker platformasini olaylik. Bu Norvegiya milliy bog‘lari haqidagi manba bo‘lib, u yerda ekosayyohlar noyob yo‘nalishlar va haykim imkoniyatlari bilan tanishishi mumkin. Loyiha xorijiy sayyohlar uchun ham mo‘ljallangan.

Sohaning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni

Dunyo bo‘yicha oxirgi besh yilda yaratilgan yangi ish o‘rinlarining to‘rtidan bir qismi aynan turizm sohasiga tegishli. Demak, turizm bugun



yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha dunyo iqtisodiyotining muhim lokomotivi bo‘lib turibdi.

Xo‘sh, nega turizmni rivojlantirishni deyarli har bir davlat xohlaydi? Uning iqtisodiyotga ta‘sirini qay darajada? Soddaaroq aytganda, safarlar sayyohlar tomonidan muayyan mahsulot va xizmatlarga talabni taqozo qiladi hamda ushbu tovar va xizmatlarning ko‘proq ishlab chiqarilishiga olib keladi. Natijada mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi ortadi. Mamlakatning xalqaro turizm bozori jarayonlarida ishtiroki orqali valyuta kirib kelishi ta‘minlanadi hamda to‘lov balansi yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Daromadlarning xalqaro turizm tomonidan generatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa multiplikativ samara orqali iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, ishlab



Ingiliz tilidagi “Conde Nast Traveller” portali esa O‘zbekistonning ikki tarixiy shahri — qadimiy meros va zamonaviy shahar hayotining betakror uyg‘unligi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etadigan Samarqand va Xivadagi eng qiziqarli joylar haqida maqolalar chop etdi. Maqolalar muallifi Samarqandni go‘zal me‘moriy yodgorliklar, jonli muhit, zamonaviy gastronomiya va faol madaniy hayot uyg‘unlashgan shahar sifatida tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, turizm mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o‘zaro bog‘langan mexanizmlari shakllantirilmoqda.

So‘nggi yillarda turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetdi. Bu sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. Muhimi, o‘tgan yili xorijiy sayyohlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o‘tdi. Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayotganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Xususan, o‘tgan 8 yilda mahalliy va xorijlik investorlar 6,5 milliard dollar sarmoya kiritib, 130 ming mehmonxona o‘rni yaratdi. Parkentning Oltinbel cho‘qqisida xalqaro darajadagi yangi tog‘-chang‘i zonasi barpo etilyapti. Fransiyaning Kurshavel tog‘i-

chang‘i kurorti tog‘li hududlarimizda Yevropa standartiga mos turizm maskanlarini tashkil qilishga katta qiziqish bildirmoqda.

Joriy yilning aprel oyida Prezidentimiz raisligida hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida turizmning iqtisodiyotdagi ulushini 7 foizga, eksportni 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha 2040-yilgacha strategiya ishlab chiqilayotgani ta‘kidlandi.

Undan tashqari, yig‘ilish davomida mamlakatimizda turizm eksporti salohiyati 10 milliard dollar bo‘lsa, shuning 2 milliard dollari aynan Xorazmga to‘g‘ri kelishi aytib o‘tildi. Viloyatda jami 263 ta madaniy meros obyekti mavjud ekani, bundan samarali foydalanib, turizm xizmatlarini tashkil etayotgan tadbirkorlar ko‘pligi ta‘kidlandi. Xorazmdagi ko‘plab madaniy yodgorliklar hali o‘rganilmay turibdi. Hazoraspdagi Sulaymonqal‘a, Bog‘otdagi Qalajiqqal‘a kabi tarixiy maskanlar, Yangiariqdagi Xon bog‘i, Olma oshigan qal‘a tarixiy obyektlari haqida ma‘lumot kam. Shu maqsadda tashkil etilgan O‘zbekiston tarixchilar jamiyatining Xorazm bo‘limi faoliyati davlat byudjetidan ta‘minlanishi belgilandi. Mutasaddilarga chet eldan tajribali arxeologlarni jalb qilib, tarixiy obidalarini aniqlash va tiklash bo‘yicha amaliy ishlarni boshlash topshirildi.

Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududidagi 8 ta qadimiy qal‘ani o‘zaro bog‘lovchi to‘rt kunlik “Qal‘a tur” yo‘nalishi ishlab chiqiladi. Ushbu qal‘alar atrofida master-reja asosida xizmat ko‘rsatish obyektlari ishga tushiriladi. Umuman, joriy yilda Xorazmda jami 200 million dollarlik 91 ta loyihani ishga tushirish, 2 million xorijlik

va 10 million mahalliy sayyohni jalb qilib, turizm eksportini 700 million dollardan oshirish, turizm va xizmatlar sohasida 100 mingta yangi ish o‘rni yaratish mutasaddilarning asosiy vazifasi bo‘lishi belgilandi.

Milliy oshxona turizm brendi sifatida: o‘zbek taomlari barchani hayratga solmoqda

O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini targ‘ib qilish strategiyasida gastronomik turizmni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Mamlakatimiz vakillariga xalqaro ko‘rgazma va tanlovlarda ishtirok etishda har tomonlama ko‘mak berilmoqda, shu bilan birga, mamlakat ichida tegishli infratuzilma jadal sur‘atda takomillashtirilmoqda — mavzuli restoranlar, oshpazlik maktablari ochilmoqda hamda mintaqalar bo‘ylab gastronomik sayohatlar uyushtirilmoqda. Ushbu sa‘y-harakatlarning barchasi O‘zbekistonni jahon sayyohlik xaritasida mashhur gastronomik yo‘nalishga aylantirish maqsadiga qaratilgan.

Gastroturizmni rivojlantirish va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida 2025-yilning 21-22-iyun kunlari Londonning eng go‘zal go‘shalaridan biri — Tauer ko‘prigi yaqinida “Uzbek Culture and Food Festival” nomli yorqin xalqaro tadbir bo‘lib o‘tadi. Festival O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati, madaniyati va oshxonasiga bag‘ishlanib, tashrif buyuruvchilarga yurtimizning boy an‘analari va betakror gastronomik xususiyatlarini namoyon etadi. Festival doirasida 23-iyun kuni Londonda forum tashkil qilinadi. Unda O‘zbekistonning turizm salohiyati tadqiqotlari o‘tkaziladi, sohaning asosiy vakillari bilan uchrashuvlar hamda Buyuk Britaniyaning yetakchi sayyohlik kompaniyalari vakillari bilan B2B muzokaralari tashkil etiladi.

Shu yil 10-11-may kunlari Seulda Turizm qo‘mitasi ko‘magida O‘zbekiston oshpazlar uyushmasi vakillari Osiyoning eng yirik gastronomik tadbiri — “The 22nd Seoul International Food & Tableware Festival 2025” festivalida ishtirok etib, nufuzli “Seoul International Food Olympics 2025” musobaqasida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Dunyoning 30 mamlakatidan kelgan 1000 dan ortiq professional oshpaz bilan kuchli raqobatga qaramay, milliy jamoamiz yuqori mahorati, o‘ziga xos taom taqdimoti va milliy an‘analarga sodiqligini namoyon etgani uchun hakamlar hay‘atining yuksak bahosiga sazovor bo‘ldi.

Xalqaro oshpazlik musobaqalaridagi g‘alabalar O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘sin mustahkamlabgina qolmay, betakror ta‘mlari va boy oshpazlik madaniyatini o‘rganishga intilayotgan chet ellik sayyohlar qiziqishi ortishiga ham turki bo‘lmoqda. O‘zbek taomlari o‘ziga xosligi va rang-barangligi bilan madaniy merosning muhim qismiga aylanib, sayyohlarni jalb etuvchi omil sifatida tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda.

Umuman olganda, bularning barchasi mamlakatning iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish, yangi ish o‘rinlari yaratish va O‘zbekiston brendini jahon miqyosida mustahkamlashga imkon beradi. Hududlarda turizm va investitsiya loyihalarini rivoj etish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro maydondagi targ‘ibotlar

2025-yilning aprel oyida O‘zbekistonga 1 milliondan ortiq xorijlik sayyoh tashrif buyurdi. Bu raqam nafaqat tarixiy natija, balki turizm sohasidagi izchil islohotlar, xususan, ochiqlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash natijasi.

Turizmni strategik tarmoq sifatida rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar hamda sohaga investitsiyalar jalb etilishi, vizasiz rejimlarni kengaytirish, xalqaro turistik yarmarka va forumlarda faol ishtirok etish mamlakatimiz jozibadorligini yanada oshirmoqda, muhtasham obidalarimiz va turistik salohiyatimiz xususida xorijlik jurnalistlar tomonidan maqolalar chop etilmoqda, ko‘rsatuvlar olinmoqda.

Masalan, yaqinda Yaponiyaning yetakchi “Travel Watch” sayyohlik portalida mashhur jurnalist Toshikazu Murakamining “O‘zbekiston qanday mamlakat? Markaziy Osiyodagi maftunkor moviy gumbazli masjidilari bilan tanilgan mamlakatga tashrif buyurdi” sarlavhali maqolasi e‘lon qilindi. Unda jurnalist O‘zbekistonga qilgan safari haqidagi taassurotlari bilan o‘troqlashgan: mamlakatning sayyohlik salohiyatini, boy madaniy merosini, xavfsizlik darajasini va mahalliy aholining mehmondo‘stligini yuqori baholagan.

Maqolada O‘zbekiston Yaponiya fuqarolari 30 kungacha vizasiz kira oladigan tinch va mehmondo‘st davlat sifatida tasvirlangan. Muallif, shuningdek, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarning tarixiy va me‘moriy ahamiyatini ta‘kidlagan. Diqqatga sazovor joylar orasida Ichanqal‘a va Pahlavon Mahmud maqbarasi islom me‘morchiligining yorqin namunalarini sifatida alohida ajratib ko‘rsatilgan.

Ingiliz tilidagi “Conde Nast Traveller” portali esa O‘zbekistonning ikki tarixiy shahri — qadimiy meros va zamonaviy shahar hayotining betakror uyg‘unligi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etadigan Samarqand va Xivadagi eng qiziqarli joylar haqida maqolalar chop etdi. Maqolalar muallifi Samarqandni go‘zal me‘moriy yodgorliklar, jonli muhit, zamonaviy gastronomiya va faol madaniy hayot uyg‘unlashgan shahar sifatida tasvirlaydi.

Xiva haqidagi maqolasida shaharni ochiq osmon ostidagi muzey sifatida sharhlab beradi. Islomxo‘ja minorasi, Juma masjidi va Toshhovli saroyi kabi me‘moriy yodgorliklar noyob tarzda saqlanib qolganini ta‘kidlaydi, shuningdek, an‘anaviy hunarmandlik va gilamdo‘zlikning ahamiyatini alohida qayd etadi. Muallif ko‘cha hayoti, kutilmagan bayramlar va tong shahrabl qadimiy ko‘chalarda bo‘ylab sayr qilganda hukm suradigan sukunat haqidagi shaxsiy taassurotlari bilan o‘troqlashadi.

Undan tashqari, Turizm qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning Seul shahridagi elchixonasi bilan hamkorlikda mamlakatimiz turizm salohiyatini xorijiy davlatlarda keng targ‘ib etish va bu orqali yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida Koreya Respublikasining “Korean Broadcasting System” (KBS) milliy telekanali vakilining O‘zbekistonga ijodiy safari tashkil etildi.

Ijodkor mamlakatimizning tarixiy va zamonaviy turizm infratuzilmalari barpo etilgan Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahrida bo‘lib, KBS telekanalining O‘zbekistonga bag‘ishlangan maxsus teleko‘rsatuvini tasvirlag o‘ldi. Teleladlarda o‘zbek xalqining madaniyati va an‘analari, zamonaviy turistik infratuzilmasi, milliy taomlari hamda me‘moriy yodgorliklari haqida hikoya qilinadi.

Yuqoridagi barcha materiallarda O‘zbekistonda sayyohlik sohasi jadal rivojlanayotgani, bunda asosiy e‘tibor boy tarixiy va me‘moriy merosni saqlash hamda ommalashtirishga qaratilayotgani ta‘kidlanmoqda. Nufuzli nashrlarda chop etilgan maqolalar esa mamlakatning nafaqat madaniy merosini asrab-avaylashga, balki ularni mehmonxonalardan tortib, madaniy tadbirlargacha bo‘lgan zamonaviy sayyohlik infratuzilmasiga uyg‘unlashtirishga intilayotganini ko‘rsatmoqda. Bunday materiallar yurtimizni xalqaro maydonda targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etib, uni, ayniqsa, odatiy yo‘nalishlardan tashqarida haqiqiy taassurotlarni izlayotgan sayyohlar uchun istiqbolli va jozibador manzil sifatida namoyon qiladi.



2025-yil 17-may, 100-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz_uz_news



JARAYON

Islahotlar amalda

DEHQONOBOD TOG‘LARIDAN YEVROPA BOZORLARIGA

Turmush tashvishining yuki og‘ir. Ayniqsa, oilada biror kishi tayinli yumush bilan shug‘ullanmаса, yashash оson kechmaydi. Har kuni ro‘zg‘orning bir kami chiqishi tayin. Uni butlash uchun harakat qilish lozim.

Maxfirat opa uydan o‘tirib, o‘zicha nimadir qilmochqi bo‘ladi. Muammoning yechimi biror kash bilan mashg‘ul bo‘lish. Izlanishga tushadi. “Yurgan daryo, o‘tingan bo‘yra”, deyishgan. Surishtiruvlari natijasida olisroq joyda ish borligini eshitib, bezovtalanadi. Qanday bo‘lsa-da, o‘sha yerga joylashishga ahd qiladi. Maosh bersa bo‘lgani. Ko‘p qatori borib, ishlab kelaveradi. Asosiysi, oilasiga nafi tegsa bo‘ladi.

Intilishi behuda ketmadi. Boysun tumanidagi korxonalardan biriga ishga kirdi. Boshida uydан olisda mehnat qilish unchalik bilinmadi. O‘n besh kun ishda, o‘n besh kun uyda. Oyligi ham yomon emas. Faqat yarim oy uydан olisga ketishning

bo‘ldi. Orzulari bir kun amalga oshishiga umid qilardi. Shu kunlar yaqinlashganiga shukrona aytdi.

Qisqa fursatda bunyod bo‘lgan “Zarafshon tekstil” MCHJning 12-filiali xotin-qizlarni ishga taklif etdi. Tikuvchilikka ixtisoslashgan majmuada dastlab o‘quv kursi tashkil qilinib, shu yerning o‘zida ish o‘rgatish jarayonlari boshlandi. — Ilgari tumanimizda ishlab chiqarish korxonalari juda kam edi, — deydi Dehqonobod tumanidagi “Yangi O‘zbekiston” MFYda yashovchi Maxfirat Jo‘rayeva. — Shu sabab boshqa joylarga borib ishlardik. O‘zim Boysun tumaniga qatnab ishlashga majbur bo‘lganman.



o‘zi bo‘lmas ekan. Ko‘nikib ketarman deb yurdi. Lekin har safar ishga otlanarkan, uzoqqa ketishga yuragi betlamasdi. Aslida, boshqa imkoni ham yo‘q. Tishni tishga qo‘yib chidash kerak. Ertatongdan yo‘l yurib, korxona tomon ketarkan, xayolida o‘ylardi: “Qaniydi, o‘zi yashab turgan Dehqonobod tumanida ham birorta yirik ishlab chiqarish majmuasi bo‘lsa. Ishga kirib, har kuni oilasi bilan birga bo‘lardi. Balki shunday kunlar kelar”. Shu orzu-da u ikki yil ishladi. Bu orada necha bor ishdan bo‘shamoqchi bo‘ldi. Afsuski, chidashdan o‘zga chorasi yo‘q edi.

Odatdagi ish kunlarining birida dugonalari gap topib keldi. Emishki, Dehqonobod tumani markazida kattagina fabrika qurilarmish. Ayollarni ishga qabul qilarmish. Bu gaplarni eshitgan Maxfirat opaning quvonchi cheksiz

Imkoni bo‘lsa, yaqin atrofda ishlardim degan orzu-da yurardim. Axir har kuni oilang bag‘rida bo‘lishga nima yetsin? Bu yerda tikuvchilik sexi ochilishi ko‘pchilik uchun yaxshi bo‘ldi. Hozir shu yerda ishlayapman. Barcha sharoitlar yaratilgan. Maoshi ham ko‘ngildagidek. Asosiysi, har kuni uydaman. Avvalgidek uzoqda o‘n besh kunlab ishlab yurmaymiz. Bajarayotgan vazifamiz ham og‘ir emas.

Filial ma‘muriyatining ma‘lum qilishicha, ilk bor 2022-yilda mazkur loyihaga qo‘l urilgan. Tuman aholisi bandligini ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan tikuv sexi 2024-yilning oxiriga kelib, to‘liq quvvatda ish boshlagan. Bolalar va kattalar uchun kiyim-kechaklar tikilayotgan korxonaga aksariyat xotin-qizlar “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida ishga qabul qilingan.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

— Shu paytga qadar biror joyda ishlamaganman, — deydi Sayyora Ulashova. — Mahallamizda “Temir daftar”da ro‘yxatda turardim. Doim daromad topib, oilamizni boqish haqida o‘ylab kelardim. Bir kuni mahallamizdagi hokim yordamchisi tikuv sexi ishchi qabul qilayotganini aytib qoldi. Qo‘limda hunarim bo‘lmagani sabab qabul qilishmаса kerak deb o‘ylagandim. Shunday bo‘lsa-da, tavakkal qilib keldim. Yo‘q deyishmadi. Qulay tomoni, boshidanoq bilimganlarimni o‘rgatishdi. Qiziqish bo‘lsa, barini o‘rganish оson ekan. Hozir tajribali xodimlardan biriga aylandim. O‘z vaqtida maosh berishmoqda. Ishga kelib-ketishimizga avtobus qo‘yilgan. Dam olish uchun yetarli sharoitlar yaratilgan.

Tikuvchilardan Dilafroz‘z Rahmonova, Umida G‘afforova ham shu paytga qadar ishsizligi tufayli “Ayollar daftari”da ro‘yxatda turardi. Yangi korxonaga ishga joylashib, daftardan chiqarildi. Ular bundan xursand.

Har kuni dugonalar sexga boradi. Quvnoq jamoada astoydil ishlab, yuqori kayfiyatda uyiga qaytadi. Korxona ma‘muriyati yordamida bandligi ta‘minlanib, to‘kinlik kirib borayotgan oilalar safi tobora ortib bormoqda.

— Hozir ishlab chiqarish majmuamizda 500 xotin-qizning bandligi ta‘minlangan, — deydi filial direktori Jamoliddin Boboyev. — Bu yerda mehnat qiluvchilar uchun yetarli maosh belgilangan. Bundan tashqari, doimiy ravishda ularning salomatligi ko‘rikdan o‘tkazib boriladi. Zarurat bo‘lganda, kerakli yordam berish uchun sharoit mavjud. Endigina ishga kirgan kishilar malakali ustozlarga biriktirilib, ish o‘rgatiladi. Bajaradigan ishimiz buyurtmaga ko‘ra tayyor bichimdagi kiyim-kechaklarni o‘z vaqtida tikib berish. Avvallari ishchilarimizga

oylik belgilangandi. Hozir bajaradigan ishga qarab mehnat haqi to‘lanmoqda. Bu esa tikuvchilarimiz uchun yanada qulay bo‘ldi. Bir oyda o‘rtacha uch million so‘mdan ortiq mablag‘ ishlab topishmoqda. Mahsulot tayyorlashda sifatga katta e‘tibor qaratiladi. Bejirim va chiroyli kiyimlar hamisha xaridorgir bo‘ladi. Bizda tayyorlangan mahsulotlar to‘liq xorijga sotiladi. Birgina xato qilish biz uchun qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun tikuvchilarimizdan doim mas‘uliyatli bo‘lish talab etiladi.

Loyiha qiymati 6 million dollari tashkil etgan mazkur korxonada bosqichma-bosqich yangi ish o‘rinlari tashkil etish rejalashtirilgan. Ayni paytda bu majmuaning yillik ishlab chiqarish hajmi 24 milliard so‘mni tashkil qiladi. J.Boboyevning ta’kidlashicha, kelgusida bu yerda yiliga 1,5 million dona eksportbop, import o‘rmini bosuvchi tayyor mahsulot ishlab chiqariladi hamda ichki bozorni arzon va xalqaro standartlarga to‘la javob beradigan sifati kiyim-kechak mahsulotlari bilan ta‘minlash imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda korxonaning 2 ta xorijiy davlat ishbilarnomlari bilan shartnomasi mavjud bo‘lib, yil yakuniga qadar 3,5 million dollardan ortiq miqdordagi eksport amalga oshirish maqsad qilingan.

Kelgusida qo‘shimcha quvvatlar yaratish hamda yangi loyihalar orqali ish o‘rinlari sonini mintaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa yana qo‘shimcha 500 kishining bandligini ta‘minlash demakdir.

Yunus BO‘RONOV, Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

yo‘llarni toza va orasta saqlash, ekologik muhit barqarorligini ta‘minlash. Ayni kunda Toshloq tumanida tajriba tariqasida haydovchilarni oldindan ogohlantiruvchi maxsus belgilar qo‘yilib, yo‘l chetlariga chiqindi qutilari o‘rnatilmoqda. Endi mashinadan tushmagan holda chiqindini mazkur qutilarga tashlab ketish mumkin. Qutilarda to‘plangan chiqindini o‘z vaqtida olib ketish tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi yo‘l ustalari nazoratida bo‘ladi. Bu tajriba kutilgan samarani bersa, yaqin istiqbolida viloyat bo‘ylab ana shunday maxsus chiqindi to‘plash qutilari o‘rnatiladi.

Tozalik, gigiyena qoidalariga amal qilish, atrof-muhit muassafoligini ta‘minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan. Ko‘chaga, yo‘l bo‘yiga, zilol suvli ariqqa uloqtirib ketilgan chiqindi oxir-oqibat turli viruslar, kasallik chaqiruvchi zaharli moddalarga aylanib, o‘zimiz va oila a‘zolarimiz sog‘lig‘iga ziyon yetkazishini unutmalgimiz kerak.

— Viloyatda chiqindilarning asosiy qismini qog‘oz, temir, to‘qimachilik, teri, rezina, shisha, tosh-shag‘al, polimer va plastik, yog‘och, oziq-ovqat qoldiqlari tashkil qiladi, — deydi Farg‘ona viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i Bahromjon Jumanov. — Bugungi kunda maishiy chiqindilar joylashtiriladigan 18 ta poligon mavjud. Aholidan hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilarning o‘rtacha miqdori yiliga 1,1 million tonnani tashkil qiladi. Biroq tabiatni asrash, hududlar sanarjom-sarishtaligini ta‘minlash faqat mas‘ullarning vazifasi bo‘lib qolmasligi kerak. Maishiy chiqindilar paydo bo‘lishiga bilvosita sababchi bo‘lganlar uni bartaraf etishga ham o‘z hissasini qo‘shishi zarur. Bu ishlarda, avvalo, o‘zimiz namuna bo‘lishimiz, farzandlarimiz ongiga ana tabiatni sevish, uni muhofaza qilish borasidagi bilim va ko‘nikmalarni singdirib borishimiz, bu yo‘lida ibrat bo‘lgan yoshlar, murabbiylarni rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Ota-bobalarimiz yo‘l, ariq, daryoni pokiza saqlash, ekilgan dov-daraxtni asrab-avaylashni o‘z burchi deb sanagan. Mashinadan chiqindi tashlash kimlar uchun arzimas masala bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ammo bugungi e‘tiborsizlik va loqaydligimiz etraga katta muammolarga sabab bo‘lishini unutmashlik kerak.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON



Kun mavzusi



ISSIQ OB-HAVO SHAROITIDA DALADA ISHLOVCHILAR UCHUN JIDDIY TAVSIYALAR

Ayni kunlarda mamlakatimiz hududida 41-43 daraja issiq harorat kuzatilmoqda. Bunday ob-havo qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun ham jiddiy sinov bo‘lib, ularning o‘shishi, rivojlanishi va hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekistonda aholining katta qismi qishloq xo‘jaligi yumushlari bilan band. Bunday sharoitda suv va ozuqa muvozanatiga e‘tibor berish, har bir ekinni turiga mos parvarish qilish nafaqat hosilni saqlab qolish, balki iqtisodiy barqarorlik uchun ham muhim.

Shunday murakkab vaziyatda mutaxassislar fermer va dehqonlarga qator tavsiyalar bermoqda. Birinchi navbatda, daladagi ishlarni etralab soat 10:00 gacha bajarish, 10:00 - 16:00 oraliq‘ida esa ishlarni to‘xtatish kerakligi aytilmoqda. Bundan tashqari, dala sharoitida ishlayotganlarga harorat yuqori darajaga ko‘tarilgan vaqtda quyosh nuri ostida qolgan plastik idishlardan suv ichmaslik, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilmaslik ta’kidlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligidan xabardor kishi paxta yetishtirish faqat yerga chigit qadashdan iborat emasligini, har bir jarayon katta mas‘uliyat talab qilishini yaxshi biladi. Ayniqsa, issiqda bu mas‘uliyat yanada ortadi. Kuzatilayotgan ob-havo sharoitida dehqon va fermerlarning ilmiy asosdagi chora-tadbirlari, vaqtni samarali taqsimlashi va zarur agrotexnik tadbirlarni ko‘rishi hosilning sifati va miqdorini saqlashda katta yordam beradi.

— G‘o‘zaning jazirama issiq va suv tanqisligiga chidamliligini oshirish uchun biostimulyatorlar, suspenziyalar, ammiakli selitra bilan oziqlantirish, tomchilatib sug‘orish va qator oralarini mahalliy o‘g‘it bilan muhalash tavsiya etiladi, — deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligining global iqlim o‘zgarishlari sharoitida biodehqonchilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Bahrom Yusupov. — Biostimulyatorlar va suyuq o‘g‘itlar (bor, molibden, rus, mis, temir, marganes, kobalt, azot, fosfor) bilan barg orqali oziqlantirish, shuningdek,

Tog‘ va tog‘oldi hududlarda esa havo harorati 30 darajadan oshmagan paytlarda etralab soat 10:00 gacha yoki kechqurun 17:00 dan keyin biostimulyatorlar orqali bargdan suspenziya usulida oziqlantirish zarur. Bu vositalar ekinning stressga chidamliligini oshiradi, o‘shishini rag‘batlantiradi hamda hosildorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bug‘doyni iqtisodiy ahamiyati, ichki va tashqi bozordagi ehtiyojini hisobga olgan holda har bir fermer va mutaxassis jarayonga jiddiy yondashishi zarur. Zamonaviy agrotexnik tadbirlar va ilmiy tavsiyalarga amal qilish orqali yuqori hosil olish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat fermer daromadini, balki umumiy milliy iqtisodiyotni ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

— Sabzavotlarning o‘shishi va rivojlanishi havo-tuproq haroratiga, fotosintez intensivligiga bog‘liq. Harorat 25-35 darajagacha ko‘tarilganda fotosintez jarayoni kuchayadi, 40-50 darajaga yetganda esa butunlay to‘xtaydi, — deya so‘zida davom etadi Bahrom Yusupov. — Pomidor, qalampir, baqlajon, bodring kabi issiqsevar o‘simliklar uchun 20-30 daraja harorat eng qulay, ammo ular o‘ta issiqqa chidamli emas. Qovun, tarvuz, qovoq, makkajo‘xori, loviya kabi ekinlar esa 30 darajada yuqori assimilyatsiyaga erishadi, lekin 40-45 daraja ular uchun noqulay harorat.

Mutaxassislar fikricha, sabzavot ekinlarni jaziramadan asrash uchun qator agrotexnik choralarini ko‘rish zarur. Bu o‘rinda ham, avvalo, ularni tunda sug‘orish tavsiya etiladi. Chunki bu davrda havo harorati past bo‘lib, namlikni o‘simlik yaxshi o‘zlashtiradi. Shuningdek, o‘simliklarni to‘g‘ridan to‘g‘ri quyosh nuridan himoyalash, zarur bo‘lsa, sun‘iy salqinlik hosil qilish juda muhim. Qolaversa, kunning eng issiq paytlari



FARG‘ONADA KATTA YO‘LLAR BO‘YIDAN HAR KUNI 600 QOPDAN ZIYOD CHIQINDI YIG‘ISHTIRIB OLINMOQDA



Farg‘ona — Qo‘qon katta avtomobil yo‘li bo‘ylab yeldek uchib borayotgan mashinamiz oyamasiga qora sellofan paket uchib keldi. Hamma nima bo‘lgani, holat qanday yuz berganini anglay olmay, bir-birimizga savol nazari bilan qaradik. Haydovchi mashinani yo‘l chetiga to‘xtatdi. Atrofimizda turli qog‘oz, meva po‘choqlari, baklajalar chiqib yotgandi. O‘zimiz bilan ovqatlanib so‘lib chiqindi uloqtirib ketgan mashinani ham ko‘zdan qochirdik...

— Yaqinda Qirg‘izistonning Qadamjoy tumani orqali Shohimardon qishlog‘iga bordik. 147-bo‘limida ishlayman, — deydi Qahramonjon Ziyayev. — Asosiy vazifamiz yo‘llardagi mavjud nosozliklar, ta‘mirlab yo‘l belgilarini aniqlab, o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish, avtomobil va yo‘lovchilar erkin harakati uchun xavfsiz sharoitlar yaratib berishdan iborat. Ammo o‘z ishimiz qolib, har kuni ikki-uch qop baklajka,

sellofan paket, qog‘oz bo‘laklari, hatto bolalar tagliklarini yig‘ish bilan ovaramiz. Transport vositasidan chiqindi uloqtirganlarga mas‘umiy javobgarlik belgilanib, jarima miqdori oshirilgan. Biroq ularni aniqlash, javobgarlikka tortish bizning vakolatimizga kirmaydi.

Vaziyat shu darajaga borib yetganki, viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi yo‘l ustalari katta yo‘llar bo‘yidan har kuni qariyb 600 qopdan ortiq chiqindi yig‘ishtirib olishiga to‘g‘ri kelmoqda.

— Har kuni mingdan ziyod xodim ishga jalb etilib, 4500 kvadrat metrdan ortiq maydon supurilib, tozalash ishlari olib boriladi, — deydi Farg‘ona shahri obodonlashtirish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Mahmudjon Mirahmedov. — Shuningdek, 12 kilometrdan ziyod ariq va lotoklar tozalanadi. Kuniga 11 ta zamonaviy texnika yordamida shahar hududidan 35 tonna chiqindi olib chiqiladi. Bu ishlar uchun 23 ta ko‘kalamzorlashtirish brigadasi jalb etilgan. Afsuski, hamyurtlarimiz hamma vaqt ham bu og‘ir yumushlarning qadriga yetmaydi. Shu bois, etralab tozalangan xiyobonlar, ko‘chalar, ariqlar kechgacha turli maishiy chiqindilar bilan yana to‘lib-toshadi. Maxsus chiqindi qutilariga borishga eringan ayrim kimsalar chiqindini mahalla boshi, yo‘laklar, ariq va avtomobil yo‘llari bo‘ylariga tashlab ketishni odat qilgan.

Dunyoning qator mamlakatlarida atrof-muhitni ifloslantirish yoki tabiatga ziyon keltirganlik uchun salmoqli miqdordagi jarima qo‘llaniladi. Masalan, Ispaniyada mashina oynasidan chiqindi uloqtirish 200 yevro, sigaret qoldig‘ini tashlash 90 yevro miqdoriga jarimaga sabab bo‘ladi. Yerga tashlangan qog‘oz uchun Singapurda 300 dan 1000 dollargacha jarima to‘lash kerak. Yaponiya maktablarida o‘quvchilar

darslarni tugatgach, sinfxonalarni o‘zlari tozalab, tartibga keltirishi odat tusiga kirgan.

Xiyobonlar, magistral yo‘l yoqalaridagi noyob manzarali daraxtlarga shikast yetkazish, gulzorlarni payhon qilish, piyodalar yo‘lagi, yo‘l chetidagi bezakli to‘siqlarni buzib ketish holatlari, afsuski, hamon uchrab turibdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, shirinliklar qoldiqlari oyoq ostiga tashlab ketilayotgani esa yanada achinarli.

Xonadonlarda to‘planadigan chiqindilarni belgilangan muddatda olib ketishga “Toza hudud” korxonalari mas‘ul. Bugungi kunda har bir shahar-tumanda ular o‘zaro shartnoma asosida aholiga sanitar xizmatlarni ko‘rsatmoqda. Lekin hamma joyda ham aholi bu xizmatdan birdek mamnun emas.

Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi tasarrufida 3985 kilometr yo‘l mavjud. Har kuni yo‘llarni ta‘mirlash, tartibga keltirish, tozalash ishlari bilan bog‘liq yumushlarga 1000 nafardan ko‘proq yo‘l ustasi jalb etiladi. Viloyatdagi gavjum avtomobil yo‘llarida bir soatlik mashinalar qatnovi o‘rtacha 30-35 mingtani tashkil etadi. Tasavvur qilib ko‘ring, har bir mashinadan bir dona oddiy baklajka yoki qog‘oz qoldiqlari tashlangan taqdirda qanday holat yuzaga keladi? Shu sababli ba‘zi yo‘llarda chiqindilarni kuniga uch-to‘rt bor yig‘ib olishga to‘g‘ri kelmoqda. Bunday chiqindilar orasida qurilish materiallari, sabzavot, meva po‘choqlari bor...

Muammoni bartaraf etish uchun yangi tashabbuslar ilgari surilib, innovation g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, — deydi viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Gulnora G‘iyosova. — Asosiy maqsad —



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

zararkunandalarga qarshi maxsus preparatlar qo‘llash zarur. Suv sepiش orqali dala atrofida mikroiklari yaratish hamda zararli hasharotlar ko‘chishining oldini olish ham muhim. Tunda sug‘orish tuproq namligini saqlab, suvning behuda bug‘lanishini kamaytiradi. Intensiv texnologiya asosida parvarishlanayotgan g‘o‘za maydonlari 3-4 soat davomida gektariga 100-120 kub metr miqdorida tez-tez tomchilatib sug‘orilishi kerak.

Bug‘doy yetishtirish qishloq xo‘jaligining strategik tarmoqlaridan. G‘allachilik oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hukumatimiz tomonidan har yili g‘allachilikni qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy qilish, yetishtirilgan hosilni kafolatlari xarid qilish borasida muayyan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Mutaxassislar issiq ob-havo sharoitida g‘allaning o‘rtapishar va kechpishar navlari ekilgan maydonlarni tunda sharbat usulida sug‘orishni tavsiya etmoqda. Bu usul tuproq namligini samarali saqlab, issiqlik stressini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, suv tejiladi.

dalada chopiq, begona o‘tlardan tozalash kabi ishlar qilinmasligi lozim. Issiq sharoitda o‘simliklarning ozuqa moddalarini bilan to‘liq ta‘minlanishi katta ahamiyatga ega. Kaliy, fosfor va azot kabi elementlar bilan barg orqali oziqlantirish o‘simlikning sog‘lom, barqaror va tez o‘shishiga yordam beradi. Shu bilan birga, uzoq davom etadigan yuqori harorat meva, uzum va boshqa poliz mahsulotlari o‘shishi hamda hosildorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatda tomchilatib sug‘orish eng maqbul yechim. Ushbu usul suvni bevosita ildizga yetkazish orqali namlik muvozanatini saqlab turish va suv sarfini minimallashtirish imkonini beradi. Mevalarni erta tongdagi salqin pallada yig‘ib-tergan ma‘qul.

Jaziramadagi agrotexnik yondashuv nafaqat hosilni saqlab qolish, balki dehqon va fermerlarning barqaror faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Harorat ta‘sirini kamaytirish, agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida amalga oshirish asosiy vazifa.

Sardor TOLLIBOYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Boshlanishi 1-betda

Bu juda katta strategik voqea. Bolalarimizning ma’naviy himoyasi, mafkuraviy immuniteti masalasi. Bir umr farzandlarimizning milliy tarbiyasi borasida o‘ylab, izlanib yurgan bir pedagogning o‘ylarini bayon qilmoqchiman.

Kattalar ham, bolalar ham har kuni ikki tur — moddiy va ma’naviy ozuqa bilan oziqlanadi. “Biz nima yegan bo‘lsak, o‘shamiz” degan gap bor. Bu odam ovqat, meva, ichimlikdagi kimyoviy elementlarni hazm qiladi, qanday elementlarni yeb-ichsa, o‘shalarining izmida bo‘ladi degani. Shuning uchun odam yeydigan narsalarni ko‘rib, tekshirib, keyin iste’mol qiladi. Biladiki, yomon ovqat kasal qiladi. Tajribasiz bolalar esa adashadi.

Ma’naviy ovqat bu — xabar, matn, mem, post, qo‘shiq, bashara. Har tong o‘z menyusi, takliflari bilan otadi. Har kunning o‘z xabarlari — ma’nolari, ma’naviy menyusi bor. U har daqiqqa, soniyada yangilanib boradi. Shuning uchun chorshanbaning media (ma’naviy) dasturxonini menyusi shanba kuniga yaramaydi. Telefonimiz — o‘zimiz bilan birga yuradigan shaxsiy, ko‘chma ma’naviy dasturxonimiz. Ma’naviy ozuqa ko‘z, quloq bilan yeyiladi. Mana shu ma’naviy dasturxon — kontent.

Menimcha, “bolalar milliy kontenti” jumlasidagi “milliy”ni ikki ma’noda tushunishimiz kerak. Biri — davlat kontenti ma’nosida. Ikkinchisi — milliy-madaniy, o‘zbek ma’naviyati ma’nolarida. Bolalar milliy kontenti yoshlar tarbiyasida davlat va millat manfaatlari birligining media ifodasi. U davlat va millat manfaatlarini olg‘a surishi, himoya qilishi va shaxsiy ustuvor tutishi dardkor.

“Yomon bo‘lsa ham o‘zimizniki”, “Bizga bo‘laveradi” degan qarash bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Nima demoqchimiz? Global mediadasturxonga tortayotgan tomlarimiz shirin, aqlli, foydali, sifatlil bo‘lishi kerak.



Muhammadjon QURONOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
direktori o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Taklifim, o‘zbek bolalar milliy kontentining sifat standartini yaratishimiz lozim. Har bir katta-kichik, sohasidan qat’i nazar, bolalar mediasini aniq o‘lchab, baholash standartini ishlab chiqishimiz zarur. Bu nima beradi? Bu bizga har bir kunning milliy kontenti (ma’naviy dasturxonimiz)ni ana shu standart asosida aniq baholash imkonini beradi. Bolalarimizning mediadasturxoniga nimalar tortilgan, necha xil, sifati, muddati qanday? Millat bolalarining ma’naviy salomatligiga ta’siri qanday? Davlat qonunlari va milliy-ma’naviy standartlarimizga moslik darajasi qanaqa deb kunora o‘lchab, baholab borishimiz kerak.

Global kontent ham bozor. O‘zining xaridorlari bor. Masalaga ilmiy asosda yondashsak, ilm biz ishlab chiqayotgan mediamahsulotlarning

bozorgirligi, raqobatbardoshligi, narxu navosini o‘lchab beradi. Yutuqlarimiz, xatolarimizniyam ko‘rsatadi.

Nega? Chunki yangi avlod o‘zbeklari voyaga yetyapti. Milliy kontent — ularning (kasbidan qat’i nazar) risoladagidek yigit-qizlar bo‘lib maydonga chiqishiga yordam beradigan ma’naviy oziq. Milliy kontent faqat biz uchunmas, butun insoniyat uchun kerak. Har bir millatning o‘zligini yo‘qotmasligi uchun zarur.

Shuning uchun har bir davlat o‘z media vatanini qo‘riydi. Media orqali ma’naviy chegarani buzib, yoshlarning ko‘zi, quloq‘idan kirmoqchi bo‘layotgan infeksiyalarni ko‘rib, jar soladi. Chunki bolalar milliy kontenti — bolalarimizga muqobil, o‘zbekona o‘ylash tarzini o‘rgatib, saqlab qoladigan ma’naviy qalqon.

Bola ko‘radigan kino, o‘qiydigan kitob, eshitadigan qo‘shiq, tomosha qiladigan videolar o‘z ona tilida, o‘z muhitida bo‘lsa, dunyoqarashi ham milliy bo‘ladi. Milliy kontent nafaqat tarbiyaviy, balki jamiyatda birlikni ta’minlaydigan omil hamdir. Hamma bir xil g‘oyada, tarixda, urf-odat va qadriyatda yashasa, millat kuchli bo‘ladi. Bu ma’naviy barqarorlikdir.

Milliy kontent axborot urushlari davrida yoshlar ongini himoya qiluvchi, kelajak avlodni tarbiyalovchi, milliy o‘zlikni saqlovchi muhim resurs.

AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarda milliy kontentga odiy axborot vositasi emas, balki mafkuraviy, siyosiy va iqtisodiy qurol sifatida qaraladi. Ular bolalarga o‘z falsafasini multfilm, qahramon, qo‘shiq, kino orqali maqsadli, izchil, rejali, o‘lchab singdiradi. O‘z kontenti orqali dunyoga ta’sir o‘tkazadi.

Dunyoda milliy kontentni baholash tajribasi katta. Bolalar milliy kontentining ham. Jumladan, asosiy mezonlari etib quyidagilarni keltirish mumkin: kontentda qadriyatlar, til, tarix qay darajada to‘g‘ri va chuqur ifodalangan? Yoshlarga mo‘ljallangan medialarning axloqi qanday? Kontent mahalliy platformalarda tarqaladimi? Ishlab chiqaruvchi o‘zimizmi yoki tashqimi? Qancha kishi ko‘rdi, o‘qidi? Jamiyatda qanday fikr uyg‘otdi? Milliy ongga ta’siri qanday, ya’ni qahramonlar, tarix, milliy ramzlar qanday targ‘ib qilingan? Milliy g‘urur, vatanparvarlikka ta’siri bormi? Iqtisodiy samarasi qanday: mahalliy kontent qancha daromad keltiryapti? Eksport yoki litsenziya orqali qay darajada pul topilyapti? Kontent nafrat, zo‘ravonlik yoki ekstremizmini targ‘ib qilmaydimi? Ma’naviy sog‘lom muhitga xizmat qilayptimi?

Ayrim mamlakatlarda bolalar milliy kontenti shunchaki ijod mahsuli emas, mafkuraviy himoya vositasi. Shu bois, milliy kontent qat’iy axborot xavfsizligi mezonlari bilan baholanadi.

Bu juda qiziq mavzu, gap ko‘p. Bir gap aniqiki, milliy kontent — millatlarni saqlash, yoshlarni tarbiyalash, davlatni, mustaqillikni ma’naviy himoya qilish yo‘li.

Demoqchimanki, biz bugun hammamiz, ayniqsa, ziyolilar milliy kontentimizni o‘z ichiga olishi deb bilaylik. Uni o‘z post, milliy mediakontentlarimiz bilan himoya qilishimiz kerak. Chunki ma’naviy, media vatanimizga tухmat toshlari otilib turibdi. Ko‘rib, o‘qib, indamay turish bizga yarashmas.

Muloqaza

Joriy yil 15-may kuni maktab ta’limi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularning targ‘iboti, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha professional tashkilot yo‘q edi. Shu munosabat bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Axborot oqimini nazorat qilish tobora qiyinlashib borayotgan ayni pallada bu tashabbusning amalga oshirilishi katta qadam bo‘ldi.

ERTANGI AVLODNING KIM BO‘LIB ULG‘AYISHIGA BIZ MAS’ULMIZ



Muhayyo BAYBAYEVA,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Internet va ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotimizdan chuqur joy egallagan. Ayniqsa, maktab yoshidagi avlod uchun u nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiylashuv, muloqot va dunyoqarash shakllanadigan makondir. Tahlillarga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining katta qismi, aniqrog‘i, 80 foizi internet va ijtimoiy tarmoqlarning faol foydalanuvchisi. Bu raqam bir qarashda zamonaviy dunyo bilan integratsiya belgisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jiddiy tashvishlarga ham asos bo‘ladi.

Global axborot makoni cheksiz imkoniyatlar bilan birga turli zararli va salbiy ma’lumotlar ham aylanadigan hududdir. Hali to‘liq shakllanib ulgurmagani, yaxshini yomondan ajratish ko‘nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bir paytda yosh aql egalaring nazoratsiz bunday muhitga kirishi ko‘plab xavfni yuzaga keltiradi. Albatta, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan bolalarni zararli axborotdan himoya qilish bo‘yicha muayyan ishlar qilyapti. Filtrlash tizimi,

ogohlantirish, targ‘ibot ishlari — bularning barchasi muhim qadam. Ammo bu sa’y-harakatlarning o‘ziga yetarli emas. Zararli oqimlarga qarshi eng samarali qurol sifati, tarbiyaviy ahamiyatga ega va eng muhimi, yoshlar uchun qiziqarli milliy kontent yaratishdir.

Bugun aynan mana shu jihatda katta bo‘shliq mavjud. Yoshlarning diqqatini tortadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, madaniyatimiz singdirilgan, zamonaviy formatdagi kontent yaratayotgan ijodkorlar juda kam. Bolalarimiz ko‘proq xorijiy, mentalitetimizga yot qahramonlar, voqea va g‘oyalardan oziqlanib ulg‘aymoqda. Ularining qahramoniga aylanayotgan shaxslar, qiziqishlari, hatto so‘zlashuv uslublari ham aynan mana shu xorijiy kontent ta’sirida shakllanmoqda.

OTM o‘qituvchisi sifatida har kuni talabalar bilan muloqot qilaman. Ularning internetdan olayotgan ma’lumoti, qiziqishlari qanchalik xilma-xil ekanini ko‘raman. Ular orasida milliy adabiyotimiz, san’atimiz, ilm-fanimizga oid eng sara namunalardan bexabar yoshlar ham uchraydi. Bu esa kelajak avlodning o‘z tarixiy ildizidan uzoqlashish xavfini anglatadi. O‘qitish tizimi qanchalik kuchli bo‘lmasin, darsdan tashqari, ya’ni internetdagi asosiy axborot oqimi milliy ruhdan yiroq bo‘lsa, biz tarbiyalamogochi bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirish jarayoni murakkablashadi.

Bolalar uchun xavfsiz axborot muhitini yaratish, milliy kontentni ko‘paytirish va bu yo‘lda mehnat qilayotgan ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash — bugunning muhim vazifalaridan. Ammo bu vazifalar ijrosi faqat berilgan topshiriq sifatida qabul qilinmasligi kerak. Butun jamiyat, ayniqsa, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar va

eng muhimi, ota-onalar bu jarayonda faol ishtirok etishi lozim.

Milliy kontentni ko‘paytirish deganda, faqat mavjud asarlarni raqamlashtirish yoki eski formatdagi materiallarni internetga joylash tushunilmasligi dardkor. Gap yoshlarning bugungi qiziqishi, ehtiyoji va raqamli iste’mol madaniyatiga mos keladigan yangi, sifatlil va innovatsion mahsulotlar yaratish haqida ketmoqda. Bu multfilm, ma’rifiy va ko‘ngilochar dasturlar, podkastlar, interaktiv o‘yinlar, elektron kitoblar bo‘lishi mumkin. Muhimi, bu kontent bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojini hisobga olgan holda, yuqori badiiy va texnik saviyada yaratilishi maqsadga muvofiq.

Ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash faqat moliyaviy rag‘batlantirish bilan cheklanmasligi lozim. Ularga erkin ijod qilish uchun sharoit yaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, mualliflik huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, eng asosiysi, mehnati qadrlanishini ta’minlash muhim. Shuningdek, universitetlar ham bu jarayonda faol qatnashishi ayni muddao. Media va kommunikatsiya sohalari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda milliy kontent yaratish ko‘nikmasiga alohida e’tibor qaratish, talabalarni bu yo‘nalishda ilmiy izlanish olib borishga undash, ijodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash — bularning barchasi kelajakda sifatlil milliy kontent yaratadigan yangi avlod ijodkorlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Xavfsiz axborot muhitini yaratish esa zararli kontentdan himoyalaniish degani emas. Bu bolalarga mediasavodxonlikni o‘rgatish, tanqidiy fikrlashga undash, internetdan foydalanishning mas’uliyatli qoidalarini singdirish demakdir. Maktab dasturlariga mediasavodxonlik darslarini kiritish, ota-onalar uchun bu borada maxsus treninglar tashkil etish, jamoatchilikda internet madaniyatini yuksaltirish kabi chora-tadbirlar uzoq muddatli istiqbolida samara beradi.

Maktab yoshidagi bolalarning internetdagi faolligi nafaqat ta’lim, balki butun jamiyat uchun ham muhim masala. Ularni zararli ta’sirlardan asrash bilan birga o‘zligimizni tanitadigan, faxrlanadigan, ijobiy g‘oyalari bilan sug‘orilgan milliy kontentni taqdim etish oldimizda turgan katta vazifadir. Uni hal etishda hamma — pedagoglar, ota-onalar, ijodkorlar mas’uliyatni his qilishi va faol ishtirok etishi lozim. Aks holda, raqamli davrning cheksiz kelamida farzandlarimiz kompanisi yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Zero, bugungi sa’y-harakatlarimiz ertangi avlodning kim bo‘lib ulg‘ayishini belgilab beradi.

Sog‘lom hayot

DAVOLASHDAN KO‘RA OLDINI OLISH AFZAL

QALQONSIMON BEZ KASALLIKLARI QANDAY KELIB CHIQADI?

Qalqonsimon bez inson organizmidagi eng muhim endokrin organlardan biridir. U tireoid gormonlari orqali moddalar almashinuvini, organlarning o‘sishi va rivojlanishini boshqaradi. Shuningdek, issiqlik hosil qilish, kislorod so‘rilishi va hujayra immuniteti kabi jarayonlarda muhim o‘rin tutadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining 10-30 foizi qalqonsimon bez kasalliklaridan aziyat chekar ekan. So‘nggi yillarda bu kasalliklarning ko‘payishi ekologik muammolar, yod yetishmasligi, genetik omillar va zamonaviy hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda ham bu muammo dolzarblashib, aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotir.

Qalqonsimon bez kasalliklari, xususan, gipotireoz (gormon yetishmasligi) va tireotoksikoz (gormon ortiqchaligi) keng tarqalgan. Gipotireoz umumiy populyatsiyada 0,2-2 foizni, subklinlik shakli esa 7-10 foizni tashkil qiladi. Yoshi katta ayollarda bu ko‘rsatkich 12 foizdan oshishi mumkin. Tireotoksikozning asosiy sababi greyvs kasalligi bo‘lib, u ayollarda 10-20 barobar ko‘proq uchraydi. Autoimmun tireoidit (AIT) ham gipotireozning asosiy sabablaridan biri va u ham aholining 3-20 foizida kuzatiladi.

Ayni kasalliklarning tarqalishiga qator omillar sabab bo‘ladi. Ekologik muammolar, masalan, nurlanish va kimyoviy ifloslanish bezning faoliyatini buzadi. Chernobil AES falokatidan 6-7 yil o‘tib, AIT holatlari keskin oshgani yoki Yaponiyadagi Xirosima va Nagasaki hodisalaridan keyin kasalliklar ko‘paygani bunga misol. Yod tanqisligi ham kasallik kelib chiqishidagi muhim omil. Mintaqamizning ayrim hududlarida ovqat orqali yetarli yod qabul qilinmasligi tufayli qalqonsimon bez kasalliklari kelib chiqadi. Zamonaviy hayot tarzida ko‘p uchraydigan stress, noto‘g‘ri

ovqatlanish va jismoniy harakatsizlik gormonal muvozanatni buzadi. Bunda genetik moyillik ham katta o‘rin tutadi. Chunki AIT holatlarining 31,8 foizi genetik oililarga bog‘liq. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar ta’siri, masalan, radiatsiya va elektromagnit to‘lqinlar ham qalqonsimon bez faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Darhaqiqat, qalqonsimon bez kasalliklarini erta tashxislashda jiddiy muammolar mavjud. Subklinlik gipotireoz ko‘pincha aniqlanmay qoladi. Chunki uning alomatlari aniq emas. Bemorlarda charchoq, depressiya, mushak og‘rig‘i yoki bo‘g‘imlardagi shish kabi belgilar bo‘lishi mumkin, lekin ular ko‘pincha boshqa kasalliklar bilan adashtiriladi. Masalan, gipotireoz alomatlari revmatologik yoki nevrologik kasalliklarga o‘xshab, tashxisni kechiktirishi mumkin. Gipotireozga chaligan 18-72 foiz bemorda polineyropatiya yoki bo‘g‘im artropatiyasi kabi asoratlari kuzatiladi. Bu esa tashxisni yanada murakkablashtiradi.

Mintaqamizda tashxis jarayonidagi qiyinchiliklar tibbiy infratuzilmaning nisbatan cheklangani va aholining tibbiy xabardorligi



pastligi bilan bog‘liq. Ko‘pincha bemorlar kasallikning og‘ir shakllari rivojlangandagina shifokorga murojaat qiladi. Bu esa davolash jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan, og‘ir gipotireoz holatlarida yurak yetishmovchiligi yoki gipotireoid koma kabi hayotga xavf tug‘diruvchi asoratlari yuzaga kelishi mumkin. Qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda turli usullar qo‘llanadi. Gipotireozda odatda levotiroksin kabi o‘rin bosuvchi terapiya tavsiya etiladi. Tireotoksikozda esa tireostatik dorilar (tiamazol, propiltiouratsil), radioaktiv yod terapiyasi yoki jarrohlik aralashuvi (tireoidektomiya) qo‘llanadi. Yevropada

konservativ davolash 12-18 oy davom ettirilib, 50 foiz bemorda uzoq muddatli remissiya kuzatiladi. AQSHda esa 60 foiz holda radioaktiv yod terapiyasi afzal ko‘riladi. Rossiyada shifokorlar 70 foiz holatda jarrohlik yoki radioaktiv yod usulini tanlaydi. Mamlakatimizda buni davolashda qiyinchiliklar mavjudligini qayd etish lozim. Boisi, radioaktiv yod terapiyasi va zamonaviy jarrohlik usullari cheklangan miqdorda qo‘llanadi. Chunki bu usullar maxsus jihozlar va malakali mutaxassislarni talab qiladi. Bundan tashqari, bemorlarning muolajaga rioya qilmasligi yoki moliyaviy qiyinchiliklar tufayli

davolash jarayoni to‘xtab qolishi mumkin. Masalan, tireostatik dorilar bilan davolanish uzoq muddat talab qilsa-da, ba’zi bemorlar davolanishni erta to‘xtatib, kasallikning qaytalanishiga sabab bo‘ladi.

Qalqonsimon bez kasalliklarining oldini olish va erta tashxislash uchun qator choralar ko‘rilishi zarur. Avvala, yod profilaktikasi muhim ahamiyatga ega. Yodlangan tuz, dengiz mahsulotlari, sut mahsulotlari va yodga boy boshqa oziq-ovqatlar iste’molini ko‘paytirish kerak. O‘zbekistonning yod tanqisligi kuzatiladigan hududlarida bu masalaga alohida e’tibor berilishi lozim.

Bundan tashqari, aholining muayyan guruhlari, xususan, yoshi katta ayollar va genetik moyilligi bo‘lgan shaxslar uchun muntazam skining dasturlari tashkil etilishi zarur. Bu dasturlar tireoid gormonlari darajasini tekshirish va ultratovush tekshiruvlarini o‘z ichiga olishi ayni muddao. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun nurlanish va kimyoviy ifloslanishni kamaytirish bo‘yicha davlat dasturlari joriy etilishi lozim. Masalan, sanoat chiqindilarini nazorat qilish va ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash bu borada muhim qadam bo‘ladi.

Aholining tibbiy xabardorligini oshirish zarur. Qalqonsimon bez kasalliklarining alomatlari, masalan, charchoq, vazn o‘zgarishi, bo‘g‘im og‘irqlari yoki yurak urishi tezlashishi haqida axboriy targ‘ibotlar tashkil qilinishi kerak. Bular televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va sog‘liqni saqlash muassasalarida taqdim qilinishi

mumkin. Masalan, mahalliy poliklinikalarda bemorlarga qalqonsimon bez kasalliklari haqida broshyuralar tarqatish yoki bepul tekshiruvlar tashkil etish foydali bo‘ladi.

Zamonaviy tibbiyotda qalqonsimon bez kasalliklarini tashxislashda ilg‘or texnologiyalar qo‘llanmoqda. Yuqori aniqlikdagi ultratovush tekshiruvlari, immunogenetik testlar va molekulyar diagnostika usullari kasalliklarni erta aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, individual davolash yondashuvlari, masalan, bemorning genetik profiliga asoslangan terapiya ishlab chiqilmoqda. Bu usullar kelajakda davolash samaradorligini oshirishi kutilmoqda.

Qalqonsimon bez kasalliklari nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham dolzarb. Kasalliklar tufayli mehnat qobiliyati pasayishi, surunkali asoratlari va davolanish xarajati oilalar va davlat sog‘liqni saqlash tizimiga katta yuk bo‘lmoqda. Masalan, gipotireoz yoki tireotoksikoz tufayli osteoporoz, yurak kasalliklari yoki nevrologik muammolar rivojlanishi mumkin. Bu esa uzoq muddatli davolanishni talab qiladi. Mintaqamizda bu muammoni hal qilish uchun davlat, tibbiyot xodimlari va aholi o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur.

Nodira SHONAZAROVA,
Samarqand davlat tibbiyot
universiteti
kafedra assistenti, endokrinolog



Ikki shoir, ikki adash, ikki Tursunboy do'stlarimga bag'ishlangan hazil ruboiy:

Tursunboyga dedi Tursunboy: Adash, Shartmi ikkimizni Tursunboy atash? She'rxon adashmasin, bo'laylik endi Sen Tursun Ali, men Tursunboy Adash.

Bu so'zlar faqatgina ikki shoirga emas, adash, deya adashuvchilarga ham hazildir. Nega ismi bir odamlarni adash deydilar, deb savol bersangiz, ko'pincha ularni bir-birlari bilan adashtirganlari uchun, degan javobni olasiz. Adash so'zining asli otadosh ekanini birov bilsa, birov bilmaydi. Shunday, qir so'zining chekka yer degan ma'nosini bilmagan kishi qirg'oqning qayerdan paydo bo'lganini anglamaydi. Dalaning chekkasi qir, suvning chekkasi qirg'oq, eshik yo derazaning chekkasi qirra.

Shah yonin farzin kibi kajilar maqom
etmish, ne tong,
Rostravlar arsadin gar tutsalar
ruxdak qiroq.

Arsa — maydon, qiroq — chekka yer. Hazratning bu mashhur baytida birinchi so'z shaxmat taxtasi, ikkinchisi — taxtaning chekkasini bildiradi. Farzin va rux — sipohlar. Rux to'g'ri chiziq bo'ylab tikka yurgani uchun shoxdan yiroqda, shaxmat taxtasining chekkasida turadi. Shunday bo'lgach, farzin kabi kavrajlar, egri qadamlar shoh yonidan joy olsa, ne ajab?

Go'zali va barkamol tashbeh. So'zlarning ma'no yuki zalvorli. O'zagi qir bo'lgan qiroq so'zi bamosoli uzukka ko'z qo'ygandek o'z o'mida. Afuski, Navoiy bobomizning til boyligidan to'la bahramand emasmiz. Boshqa ko'p so'zlar kabi arsa ham, qiroq ham unut bo'lgan.

Boshga sochilgan soch, uni choch ham deymiz va ko'p degan ma'noda ham ishlatamiz. Soch tolasidek ko'p narsa choch bo'ladi. Neki to'kilib yotsa, to'kin, sochilib yotsa, sochin. Mo'l-ko'llikni to'kin-sochinlik, deydlar.

Sochdan pastda, boshning peshida, ya'ni oldida peshona. Peshonadagi ajinlar xatga o'xshaydi. Ijodkor xalq bu chiziq-larni qismat yozuvi deb tasavvur qilgan va taqdirga tan berganda, peshonada borini ko'ramiz, degan. Yana deydlarki, insonning peshonasiga teskari xat bitilgan, baxtu omad ungan yuzini ters o'g'irgan. Mirzo Bedil bu rivoyatdan go'zal tashbeh chiqargan:

Naqshi ma'kusi nigin az sajda megardad durust,
Saranvishiti vo'jgunro rost mesozad namoz.

Ya'ni nisinga — muhr o'yilgan uzukka ters xat naqsh etilgan. Barmoq bukib nigin qog'ozga bosilsa, muhming ters xati o'ng bo'ladi. Ey inson, sening ham peshonangga taqdir xati chappa yozilgan. Uni o'ng xatga aylantirish ush peshonangni sajdaqa qo'y. Sening xaloskorning namozidir. Ajib qiyos, bedilona falsafiy bayt!

Peshona bilan bog'liq yana bir sehrli so'z. Ruslar peshonani chelo, inson umrini vek, deydlar. Chelovek degani peshonaga bitilgan umr ekan.

“

SOF O'ZBEKONA IBORA! KO'KRAKDAGI OG'RIQNI YURAK SANCHIG'I DEYISH XALQIMIZDA UZOQ ZAMONLARDAN BOR EKAN. HAZRAT YANA BIR O'RINDA AYTGANLAR: KIM YANA YO'QDIR ALAR OLLIG'A BORMOQQA YURAK. BIZ QO'RQUV MA'NOSIDA HAR KUN ISHLATADIGAN YURAK YO'Q BIRIKMASINING TARIXI-DA QADIMIY EKAN.

”

Bir ertakda ayiq bilan dehqon sheriklikda karam ekishadi. Dehqon ayiqni aldash: “Hosilning tupi senga, yaproq’i menga”, — deydi. Aldangan ayiq kelgusi yil: “Endi tupini sen olasan, bargi menga”, — deb yana aldanadi. Chunki bu gal sholg’om ekishgan edi. Nega ildizni tup deydlar? Nega yosh kelin va kuyovga: “Tup qo’yib, palak yozinglar” — deymiz? Ildiz yerning tubida bo’ladi. Demak, tub tupga aylandi. Bamosoli tub turupga, cho’b cho’pga, qolib qolipga, ko’rshabparak ko’rshabparakka aylangani kabi, og’zaki tilda kitob, maktab so’zlari kitop, maktab deyilganidek. Gulning tagida, beshikning tagida turadigan, deb tuvak deb ataydigan sopol idish aslida tubak ekan. Tub so’zining tubini izlasa, balki biz e’ tibor qilamgan yana ko’p so’zlar chiqar. Past odamni tuban deydlar. Tup ildiz bo’lsa, ildizli yer tuproq bo’ladi. Go’yo o’tli yer o’tloq, toshli yer toshloq, gulning, mevaning yopinchig’i yoproq (yaproq) bo’lgandek.

Tuproqni biz tuproq ham deymiz. Bu yog’murni yomg’ir deganimiz kabi oddiy harf almashinganimi yoki o’zbekcha tuproq bilan arabcha turbat so’zlarining qo’shilishi natijasida hosil bo’lgan yangi so’zmi? Nima deysiz?

Insonning gavnasi boshdan boshlanib, oyoqda tugaydi, odoq bo’ladi. Oyoq qadimda odoq deyilgan. Demak, odamzodning boshi bosh, odog’ odoq ekan.

Boshimizning ikki tomonidan o’sib chiqqan, ko’zaning tutqichidek o’zimizga yarashib turgan ovoztutqich “lokator”imiz qulog bo’ladi. Darhaqiqat, qulog ko’pincha tutqich ma’nosida keladi. Choynakning, qumg’orning, qozonning qulog’i bor. Qozonchida ixtiyor qaydan qulog chiqarsa, deymiz. Suv tutilgan, bog’langan yer ham qulog.

So’zimiz avvalida o’rtaga tushgan savollarga qaytsak. Yuragimiz makon tutgan yer — ko’krak. Ko’ksim osmon deganimiz bilan ko’ksu ko’krakning ko’k osmonga hech bir aloqasi yo’q chiqdi. Ko’k qadimgi turkiy tilda emmoq so’zining o’zagi ekan. Bir ko’krakdan sut emgan ko’za, ko’kaldosh bo’larkan. Demak, chinakam ko’krak ayolning ko’ksi ekan. Biz esa quruq ko’krakni kerib, ko’ksim qalqon deb yurgan ekanimiz.

Ko’ksimizda urib turgan yurak aslida yurakmi, urak? Yurak uradimi yo yuradimi? Men o’zimcha urak degim keladi. Mantiqan shunday bo’lishi kerak. Lekin “Devonu lug’otit turk”da yurak deyilgan. Darhaqiqat, yur o’zagi faqat yurishni anglatmaydi. Umuman harakat ma’nosini bildiradi. Masalan, shamol yurdi, deymiz, ishimiz yurib ketdi, degan gapimiz bor. Navoiy hazrat ham yurak deganlar. Dil, ko’ngul so’zlaricha ko’p bo’lmasa-da yurak ham turfa jilolari bilan “Ma’nalar xazinasi”dan ko’rkam o’rin olgan.

G’am kulbasida, jono, ul xastaga
rahm etkim,

YANGI O‘ZBEKISTON

Toshoyna

TEATRDA

O‘ZINGIZNI KO‘RASIZ

TEATRGA TUSHMAGANLAR

HAQIDA SHUNCHAKI GAPLAR

Bir gap aytsam, ishonasizmi? Oxirida rejissyor ikkimiz ham uyalib ketdik. Nima deyishni bilmay qoldik. Lahzalik sukunat cho'kdiki, yer yorilsayu kirib ketsak...

Qo'chqor NORQOBIL

Nufuzli tizimning kattakonlari bilan sohaga tegishli bir asar haqida fikrlashib olishga to'g'ri keldi. Yig'ilganlarning deyarli barchasi o'qib chiqqan. Qo'lida asar nusxasi. Ro'paradagi katta ekranda ham drama nomiyl ishtirokchilari, mazmun-mohiyati haqidagi yozuv shundoq ko'zga tashlanib turibdi. Asosli mulohazalar aytilsa, asarga o'zgartirish kiritish mumkin degan o'y ham yo'q emas menda.

Biroq boshqalardan lavozimi yuqori kattakon so'zining avvalidayoq: “Bu narsani chet elliklar ham ko'radi. Ehtiyoat bo'lishimiz kerak, asarni yanada yaxshi qilib chiqarishimiz shart. Axir bu boshqa tillarga tarjima ham qilinadi, tarqalib ketadi”, deb qoldi. Asar nusxasini qo'lga olib, ko'k, qizil, sariq rangli qog'ozchalar yopishtirilgan joylariga bir qur nazar soldi. Ayrim jumalarni o'zgartirish mumkinligini ham aytdi. Qishloqda yashash chin ma'noda rohat-farog'at, u yerdagi yumushlar kishiga lazzat bag'ishlashi, ayniqsa, insonni toblashi, dunyoqarashiga juda katta ijobiy ta'sir qilishi, o'zi ham qishloqdan chiqqaniyu u yerda kambag'al odam yo'qligi, kambag'al bo'lsa o'zi aybdorligi borasida o'ta sipolik bilan bama'ni fikrlar bildirirdi. Asar qahramoni ana shunday muhitda ko'ksini baland tutib ulg'ayganini yozish kerakligiga urg'u berdi.

Men hayron, rejissyor taajjubda. Bir-birimizga angriyib qaraymiz: “Nahotki bu dramani yurtimizga kelgan ajnabiylar ham ko'rsa! Axir ular o'zbekchani, sahnadagi artistlar esa ularning tilini bilmaydi-ku! Yo

o'zi ham bir oz noqulay ahvolga tushdi, biroq bildirmaslikka urindi.

Shuncha paytdan beri bu odam kinoni muhokama qilyapmiz deb o'tirgan ekan. Aytdim-a...

Tashqariga chiqdik.

— Bularning teatr haqida tasavvuri ham yo'q. Ayrimlari, o'lay agar, umrida teatrga tushmagan. Esiz, vaqtimiz bekor ketdi, — deya og'rindi rejissyor.

— Yuragim og'riyapti deb tish do'xtiriga uchrashgan odamga o'xshaymiz, — deyman zo'r-bazo'ri iljayib...

Prezidentimizning davlat ahamiyatiga molik nufuzli bir yig'inda vazir-u nozir, katta-kichik

dialoglar tarjimai ekranda berib borilarmikan? Uni kim xorijiy tilga o'giradi? Oldin qoyillatib o'zimiznikilar ko'radigan spektakl ishlaylik. Avval o'zimiznikilarni teatrga jalb qila bilaylik, so'ng bu dargohga chet elliklar kelishi haqida qayg'urish mumkin" deb o'yladim va teatr tomoshasiga kirib o'tirgan kattakonlari o'zimcha tasavvur qildim. Baribir aqlimga sig'madi...

Ikki soat chamasi davom etgan “muhokama”da haligi kattakonning “aqli” gaplari asosiy mayoq bo’ldi. Qolganlar ham o’z mulohazalari ravishini uning fikrlariga moslab olgandi.

Ochig’i, bu yerda aytilgan gap-so’zlarni inobatga olsam, drama ustida nari borsa ikki soat ishlasam kifoyea edi. Hammasi joyiga tushardi. Bu men uchun qiyin ham emas...

Xullas, majlis nihoyasi ko’rinib qolgan paytda haligi kattakon bizga qaratadi:

— Buni qachon tayyorlaysizlar? — dedi.

— Niman?

— Kinoni?

— Qaysi kinoni?

— Mana shuni-da!

Ey Xudoyim! Ustimdan muzdek suv ag'darilganday bo’ldi.

— Bu kinomas, drama! Biz kinochi emasmiz. Spektakl bilan film boshqa-boshqa narsalar. Bu sahnada qo'yiladi. Teatr sahnasida. Teatr bu...

— Bu kinomasmi? — deya kattakonning rahbarlarga qarata oxirgi bir oyda qaysi teatrga kirib, qanday spektakl tomosha qilgansizlar, desam ko'pchilik javob berolmay, uyalib qoladi degan ma'nodagi gapi tuyuq qulog'im ostida jaranglaganday bo'ldi. Ha, davlatimiz rahbari bu gapni bekorga gapirmagandi. Bu tagdor gapni o'zini bilgan kattakonlar tanasida o'bdan o'ylab ko'radi. Teatrga kirishga vaqt topadi, hech bo'lmasa, yakshanba kunlari yoppasiga ibrat maskanida spektakl tomosha qila boshlaydi. Mayli, rasmiy ust-boshda emas, odmi kiyimda, bo'yinbog'siz tomosha zaliga kiradi. Oilasi va farzandlarini ham olib keladi. Bulardan ulgi olgan tizim xodimlari ham, hech bo'lmasa, rahbaridan qo'rqqani yoki uyalganidan teatrga yo'l oladi. Axir katta arava qaysi yo'ladan yursa, mayda g'ildiraklar ham uning izidan borladi-ku. Balki tomosha zallari ham gavjum bo'lib qolar degan yoqimli xayollarga berilgandim. Teatr jamoalarining falon vazir yoki vazir o'rinbosari teatrimizga kelib, spektakl tomosha qilarkan deb xursand bo'lishini tasavvur qilib, ko'nglim ko'tarilgandi. Aytib qo'yay: bugun teatrlarga biror kattakon borib spektakl ko'rsa, o'sha yeming farroshidan tortib, sahnadagi aktoriyu teatr rahbariyatigacha o'zgacha surur bilan faxrlanishini ham bilaman. Albatta, bunday holat onda-sonda bo'lib turar... Ha, onda-sonda... yilda bir...

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.

36390 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova

Musahhih: Nasiba Abdullayeva

Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.

Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.

Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

O‘zA yakuni — 21:10 Topshirildi — 23:35